

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

*Alisher Navoiy nomidagi
Samarqand davlat universiteti*

*TARIX fakulteti
ARXEEOLOGIYA kafedrasi*

**O'RTA OSIYO PALEOLITINING O'RGANILISHI
TARIXI.**

Malakaviy bitiruv ishi

*Bajardi: Tarix yo'nalishi 406-guruh talabasi
Ro'ziboev Qaxramon Ruzibaevich*

Ilmiy rahbar: prof.Djurakulov Mavlon Djurakulovich

Malakaviy bitiruv ishi Arxeologiya kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2016-yil _____dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (Bayonnomma №____)

Kafedra mudiri: dots.Jo'raqulova D.M.

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2016-yil _____ dagi majlisida himoya qilindi va ____ foizga baholandi (Bayonnomma №____).

YaDAK raisi: _____

YaDAK a'zolari: _____

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

Kirish.....	3-5
I BOB. PALEOLIT DAVRIDA TABIIY IQLIM SHAROITI.....	6-24
II BOB. O’RTA OSIYODA PALEOLIT DAVRINI O’RGANISH TARIXI.....	25-39
III BOB. ENG QADIMGI DAVRDA ODAMZOD MADANIY HAYOTI VA TURMUSH TARZI.....	40-69
XULOSA.....	70-74
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	75-77
ILOVA.....	78-82

Kirish.

Tarix - tafakkur mahsuli. Uni puxta o'rganmay turib, keljakka nazai solib bo'lmaydi. Sababi, barcha fanlaming otasi sifatida insoriyat hayotida davrlar osha sodir bo'lgan buyuk ijtimoiy, iqtiscdiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarni mujassamlashtirib, avlodlar ongiga yetkazadi. Tarix saboqlaridan avlodlarimiz muayyan foydalanib, keljakka xushyor nazar tashlash va yosh avlodni vatmparvarlik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda unumli foydalanib kelishganlar. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov xalqimiz tarixini halol, odilona, puxta o'rganishga jiddiy ahamiyat berib, olimlarimizning bu boradagi faoliyatiga sidqidildan g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Yurtboshimizning tarixiy taraqqiyot va uning saboqlari haqidagi nutqlari va maslahatlari olimlarimiz uchun metodologik dasturulamal bo'lib kelmoqda.

"Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z tarixi, tili, madaniyati, qadriyatları tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda, bu tabiiy hol. Odamzot borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi", - deb yozgan edi I.A.Karimov.

Shuningdek, yurtboshimiz bu borada tarixchi olimlarimiz oldiga sharaflı va dolzarb vazifalar qo'yib "Davlatimiz, mamlakatimizning haqqoniy ilmiy tarixini yaratish keng jamoatchiligidan uchun g'oyat muhim va dolzarb masalaga aylanishi lozim", - deb ta'kidlagan edi¹.

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimiz, jumladan, viloyat va shaharlarimiz tarixini atroficha o'rganishga keng ko'lamlı imkoniyat tug'ildi. Samarqandlik olimlar ham so'nggi yillarda bu borada aytarli yutuqlarga erishdilar. Samarqand havzasi qishloq va shaharlarining tashkil topishi, xullas, urbonik sivilizatsiyaning sodir bo'lish evolyutsiya yo'llarini o'rganish yo'nalishida muhim ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritishdilar. Jumladan, shahrimiz Samarqand tarixining ko'hna ildizlarini ifodalab beradigan boy, yangi ma'lumotlar to'plandi. Mustabid

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan tjuramiz. Asarkar, 7-jild, -Toshkent: «0'zbekiston», 1999, 132,- 154 b.

davrda shahrimiz yoshining sun'iy ravishda kamaytirilgan holatlar yetarli darajasida olib tashlanib, Samarqand jahonning eng qadimgi sivilizatsiya beshigi ekanligi va uning tarixi uch ming yildan kam emasligi boy faktik manbalar asosida isbotlandi. Samarqand butun dunyo madaniyati va taraqqiyotida muhim rol o'ynagan shaharlardan biridir. Bu shahar Qadimgi Rumo, Bobil, Afraa va dunyoning shu kabi ko'hna shaharlari bilan bir safda turadi. Agar Qadimgi Rumo Ovropa sivilizatsiyasining yuksak darajada shakllanishida qanchalik rol o'ynagan bo'lsa, Samarqand ham butun dunyo sivilizatsiyasi ravnaqida ana shunday vazifani ado etgan va ado etib kelmoqda. Bu azim shahar tarixi haqida ko'pgina asarlar yozilgan, lekin uning ilk tarixiy ildizlari, toponimikasiga bag'ishlangan masalalar jamoatchilikka yetarli darajada yetkazilgan emas.

Ushbu bitiruv ishida arxeologiya ko'hna tarixi ildizlarini yangi yondashuv va manbalar asosida mukammal yoritish nazarda tutilgan.

Insoniyatning eng qadimgi turmush tarzi va madaniyati, bu muzofotda insoniyat madaniyat izlarining paleolit davridan boshlab, uzlucksiz madaniyat yaratib kelinganligi fanda isbotlandi. O'z davriga nisbatan bu hududlarda tashkil topgan madaniyat o'zga yurtlardan kirib kelgan emas, balki tub, mahalliy mag'izda shakllanganligi tadqiqotlar tufayli o'z isbotini topdi. Bu keng muzofotining tabiiy iqlim, ekologik sharoiti inson jamoalari yashashi uchun maqbul bo'lib, qadimgi davrlardan hozirgi zamonga qadar u keskin o'zgarmagan. Shuningdek, ovchilik, terim termachilik, keyinchalik esa ziroatchilikni kashf qilib, qo'nim dehqonchilik, chorvachilik xo'jaliklarini rivojlantirishda bu mintaqaning jo'g'rofik, iqlim sharoitlari muhim rol o'ynagan. Muzofot tabiiy boyliklarga serob bo'lgan. Bu omillar inson jamoalarining muayyan qo'nim tarzda turmush kechirishida muhim ahamiyat kasb etgan. Miloddan awalgi II ming yillikning o'rta bosqichlariga kelib esa bu havzadan sug'orma dehqonchilik asosida yirik aholi markazlaridan iborat qishloq qo'rg'onlar, shu asosda ilk shaharlар tashkil topadi. Samarqand shahrining tashkil topishida ham aynan shunday tarixiy jarayon boshdan kechgan. Tosh asrining paleolit, mezoneolit, jez davri- Bronza davriga kelib, ishlab chiqarish qurollarini metalldan yaratilishi xo'jalikning rivojiga keskin ta'sir ko'rsatdi. Bu

hodisa mehnat unumdorligini oshirib, ziyyoti mahsulotlarning paydo bo'lishiga va ibtidoiy tuzumning inqirozi, sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi va davlatchilikning tashkil topishiga olib keldi. Bitiruv ishida ana shu kabi taraqqiyot evolyutsiyasiga ahamiyat berilgan. Ushbu Bitiruv ishida insoniyatning eng qadimgi turmush tarzi va madaniyati ko'hna ildizlari haqidagi masalalar yetarli darajada, yangi yondashuv asosida yoritilgan.

I BOB. Paleolit davrida tabiiy iqlim sharoiti.

Yer tarixi 5 miliard yilni o'z ichiga oladi. Inson tarixi esa nisbatan ancha kichik bo'lib, u er sharini hamma joyida ham bir vaqt ni o'zida boshlangan emas. Olimlar tomonidan er tarixi 4 ta yirik eraga bo'lingan: arxey, paleozoy, mezozoy va kaynozoylarga. Shulardan oxirgisi kaynozoy erasi bo'lib, u odam paydo bo'lishidan ancha avval, ya'ni 60- 70 million yil ilgari boshlanib, odamlar hozir ham shu erada yashab kelmoqdalar. Arxey davri er qobig'ini dastlabki soviy boshlagan vaqtiga to'g'ri kelib, xali er sharida umuman hayot yo'q edi.

Poleozoyda dengizdagi mayda hayvonlar harakatga kelib, so'ngroq baliqlar vujudga kela boshlaydi. Mezozoy davri esa yirik sudralib yuruvchilar taraqqiy etishi bilan harakterlidir. Hozir biz yashab to'rgan kaynazoy davrini olimlar uchlamchi va to'rtlamchi kabi davrlarga bo'lib o'rganganlar. Uchlamchi davrini o'zi ham 5 ga bo'linadi: paleotsen, eotsen, oligotsen, miotsen, pliotsen. Shulardan paleotsen, eotsen va oligotsenni birga qo'shib paleogen qatlamlari, oxirgi miotsen bilan pliotsenni esa neogen qatlamlari ham deyiladi.

To'rtlamchi davrni esa antropogen (antropos odam, genezis- tug'ilish) ya'ni odamning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi hamda uni moddiy madaniyatini vujudga kelish davri deb atashgan. Neogenning oxiri va neogen bilan eopleystotsenni oralig'ida Afrikada Evropa va hamda Osiyoning janubida har xil turdag'i maymunlar yashab, ularni hayot tarzlarida va jismoniy tuzilishlarida odamlarga aylana-yotganliklarini ko'rsatuvchi xususiyatlar mavjud edi. Bular jumlasiga driopiteklar, ramapiteklar, udobnopiteklar va har xil ko'rinishdagi avstrolopiteklar kabi odamsimon maymunlar kirar edi. Bulardan uncha ko'p bo'limgan neogon davri odamsimon maymunlarining bir qismi avstro-lopiteklarga (janubiy Afrika odami) xos xususiyatlarni: go'shtni iste'mol qilish, ikki oyoqlab yurish, mehnat malakalariga ega bo'lish va nihoyat sistemali ravishda mehnat qurollarini yasash kabilarni o'zlarida mujassamlashtirgan edilar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ajdodlarimizni paydo bo'lgan davrlardan to shu kungacha bosib o'tgan yo'llarini eng ko'pi tosh asriga to'g'ri

keladi. Tosh asri paleolit, mezolit va neolit kabi davrlarga bo'linadi. Paleolitni o'zi uch davrga bo'linib o'r ganiladi: 1. Quyi paleolit, 2. O'rta paleolit va 3. YUqori paleolitga. Quyi paleolit davri arxeolog olimlarimizning ilmiy xulosalariga ko'ra ajdodlarimizni ilk bora mehnat quollarini yasagan vaqtlaridan boshlangan. Bu jarayon er sharining turli joylarida turli vaqlarda sodir bo'lган. Ammo qaerda va qachon boshlanganidan qat'iy nazar, Quyi paleolit (qadimgi tosh asri) insoniyatning eng uzoq vaqt davom tarixini aks ettirgan. Massalan: Afrika kit`asida bu jarayon 3 millidn yil avval boshlangan. Evropaning janubida va Osiyoda 1 million yil avval boshlangan. Tosh asri texnikasini takomillashuvi natijasida disk shaklidagi (rapidasimon nukleus (o'zak)larni vujudga kelishi va ulardan o'tkir uchli uchburchaksimon otshep' (uchirindi) larni yuzaga kelishi bilan quyi paleolit o'rnini o'rta tosh davri, ya`ni must'e davri oladi. Must'edan so'ng yuqori paleolit davri boshlanadi. Agar Afrika qitasidagi «Olduvay madaniyati» tarixini kuzatadigan bo'lsak, u erda Quyi paleolit hozirgi kunimizdan 2,8 million yil avval boshlanib, Evropani janubidagi va Osiyodagi must'e yodgorliklari tarixini boshlanishiga qadar bo'lган, o'rta hisobda 2 million 600 yuz ming yilni o'z ichiga oladi. Demak, Evropaning janubida, Osiyoda jumladan bizning O'rta Osiyoda must'e davri o'rta paleolit hozirgi kunimizdan 200 ming yil boshlanib, o'rta hisobda 160 ming yil davom etadi va o'rnini hozirgi kunimizdan 35-40 ming yil avval yuqori paleolit davriga bo'shatib beradi. Aniqrog'i o'ziga nisbatan progressivroq bo'lган yuqori paleolit davri bilan almashadi. YUqori paleolitni arxeologlarimiz so'nggi paleolit ya`ni paleolitni oxirgi davri ham deyishadi. Yuqori paleolit deyilganda million yillar davomida, mehnat quollarini o'ta sodda va qoloq bo'lgani uchun taraqqiyot juda sekinlik bilan rivojlanib, uning oxirida pichoqsimon uzunligi xatto 35 sm gacha bo'lган o'tkir qirrali mehnat quollari vujudga kelishi tufayli taraqqiyotda nisbatan keskin o'zgarishlar yuqori darajaga ko'tarilagani tushuniladi. Aslida yuqori paleolit va so'nggi paleolit bir xil ma`noni anglatadi. Yana shuni ta'idlash joizki 1960 yillarga qadar arxeologlar must'eni boshlangan davrini 100-80 ming yil bilan belgilar edilar. Masalan: A. P. Okladnikov O'zbekistondagi must'e davriga oid Teshiktosh g'orni yoshini 100-80

ming yil bilan belgilagan edi. Ammo 60- yillardan so'ng, butun jahon bo'ylab must'e yodgorliklarini ko'plab topilishi va ularni o'rganilishi must'e davrini qariyib ikki baravarga uzaytirish fikriga olib keldi. O'zining mehnat quollarini yasash texnikasi bo'yicha Quyi va o'rta paleolitga nisbatan juda yuksak darajaga ko'tarilgan yuqori paleolit davri, o'ziga nisbatan yanada progressivroq bo'lgan mezolit davriga, bundan 12-10 ming yil avval bo'shatib beradi. Mezolit esa o'z navbatida hozirgi kuniimizdan 8-6 ming yil avval neolit davri bilan almashadi. Neolit esa, bundan 5-4 ming yil avval bronza asri bilan almashadi. Aniqrog'i eramizgacha bo'lgan III ming yillikda bronza davri boshlanadi. Ammo bronzagacha, neolit bilan bronza davri oralig'ida eneolit davri ham bo'lib o'tgan. Shuni aytish kerakki, mis metallurgiyasi bronza metallurgiyasini boshlang'ich qismi bo'lgan. Sababi metallar orasidi mehnat quollari ilk bor misdan yasalgan. Shuning uchun ham bronza asrini boshlanishi misni eritib mehnat quollarini yasalishidan boshlanadi deyishadi. Bronza esa mis bilan qalayni birikmasidan xosil qilingan metaldir. Demak, bronza asrini ilk davrini eneolit desak ham bo'laveradi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ajdodlarimizni xo'jaligida neolit davridan foydalanib kelingan tosh quollar, bronza ayrini ilk davrida ham o'z mavqeini to'la saqlab qolgan. Ammo bir vaqt ni o'zida tosh quollar bilan bir qatorda misdan yasalgan mehnat quollari ham xo'jalikda foydalanilgan. Shuning uchun ham bu davrni eneolit- «enus» yunonchasiga mis, “litos” lotinchasiga tosh ya`ni mis va tosh asri deb atalgan. Xurmatli kitobxon Biz sizni ilk tosh asridan to temir asrigacha bo'lgan davr xaqida biroz bo'lsada tasavvur xosil qilish imkoniga ega bo'lishingizni ko'zlab, bu katta davrni bosqichma bosqich ekanligini ya`ni ajdodlarimizni qadimiy tarixi ham uzlusiz taraqqiyotdan iborat ekanligini ko'rsatishga harakat qildik. Ushbu qo'llanmani keyingi satrlarida bu ulkan davrni har qaysi bosqichi xaqida batafsilroq to'xtab, ularni bir-biridan farqlari, hayot tarzları, nima uchun birini o'rniga ikkinchisini paydo

bo'lishini,ya`ni ularni sabablarini, xo'jaliklarin asosini nimalar tashkil qilishini va shunga o'xshash ajdodlarimizni ko'p qirralarin o'z ishlarining chinakkam fidoiylari bo'lgan arxeologlarimizni XX asrda, aniqrog'i shu asrni ikkinchi yarmida qo'lga kiritilgan yutuqlariga suyangan xolda bayon qilishga harakat kilamiz.

Shuni alohida ta`kidlash joizki 1960 yillarga qadar insoniyatni eng qadimgi madaniyatini aks ettiruvchi yodgorliklar deb g'ransiyadan topilgan shell' va ashell' yodgorliklarini ko'rsatar edilar. Bunday fikr o'z davri uchun juda to'g'ri edi. Chunki 1960 yillarga qadar o'sha shell' va ashell' yodgorliklaridan ko'ra qadimiyoq birorta yodgorlik topilmagan. Shell' va ashell' madaniyatiga xos bo'lgan mehnat quroli arxeologiya faniga qo'l chopqisi (ruchnaya rubila) nomi bilan kirgan. Bu qo'l chopqilarini shaklini arxeologlar bodomsimon mindalavidnaya), yuraksimon (serdtsevidnaya) deb atar edilar. Bunday deyishlarga sabab xaqqiqatan ham ular ana shu shakllarga yaqin edilar. Ularni bir tomoni bodomni ketiga o'xshatib qo'lda ushlashga moslashtirilib to'mtoq qilingan. Qarama qarshi tomoni esa uchli nayza sifat qilinib, kesish. chopish kabi ishlarni bajarilishiga moslashtirilgan. Xronologik jixatdan shell' qo'l chopqilarini ashell' qo'l chopqilariga nisbatan qadimiyoq bo'lib, ularni yoshi arxeologlar tomonidan 800 ming yil bilan belgilangan. Ammo bu xildagi yodgorliklarni yanada qadimiyoq yoshga ega bo'lганларни топилиши мумкинligini nazarda tutib shell' davrini 1 million yil bilan belgilaganlar. Shuning uchun ham shell' qo'l chopqilarini ajdodlarimizni eng birinchi mehnat quroli deb hisoblab antropogen (odamni paydo bo'lishi) ni 1million yil bilan belgilaganlar. Shell' qo'l chopqisini og'irligi 1 kg dan 0,5 kg gacha bo'lib, ashell'niki 0,5 kgdan 300 gr gacha bo'lgan. Ashell' aslida shell' qo'l chopqilarini takomillashgan xili bo'lib, ularning xronologiyasi 500 ming yildan to 250- 300 ming yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan.

Shell' va ashell'ni yasash texnikasiga kelsak, tosh asrining barcha bosqichlaridagi tosh qurollarni yasash texnikasi va ular bilan ajdodlarimiz qanday vazifalarni bajarganliklarini aniqlash maqsadida uzoq yillar mobaynida tajriba (eksperiment) lar o'tkazgan arxeolog olim S. A. Semyonovning fikricha, ibtidoiy

odam qo'l chopqisini yasashdan avval, tashqi shakli ana shu qurolni yasalishi uchun qulay bo'lgan qayroq tosh (gel'ka) ni yoki chaqmoq tosh (kremen)ni bo'lagini topgan. Shundan so'ng uni ikkinchi tosh (Otboynik) bilan chekkalariga urib, to bu tosh bo'lagi qo'l chopqisi shakliga kirdunga qadar ishlov berilgan. Ya`ni un-dan bir necha o'nlab uchirindi (otshep') lar uchirib olingan².

Shunday qilib, yuqorida biz sanab o'tgan er sharidagi barcha qadimiy odamlar orasida eng qadimiysi Olduvey madaniyatiga oid avstrolopiteklar bo'lib, ular arxeologik jixatdan to'da davriga to'g'ri keladilar. geologik jixatdan esa Quyi pleystotsen davri bilan belgilanadilar. 1959 yi-li Tanzaniya`ning Olduvey tog'ini ilk to'rtlamchi qatlamanidan qadimgi odam suyagi topilib, unga zindjantrop deb nom berilib, uni yoshi 1,5 million yil bilan belgilangan bo'lsa, 1960- yilga kelib xudi shu Olduvey tog'idan topilgan odam suyagiga prezindjantrop deb nom berilib uni yoshi 1,85 million yil bilan belgilandi. (prezindjantrop so'zi zindjantropdan oldingi odam degan ma`noni bildiradi.) Prezindjantropni « Homaxabilis» ya`ni «bilag'on odam» deb atashdi.

1967- yildan boshlab efiopiyani Omo vodiysida xalqaro ekspeditsiya o'zini qidiruv ishlarini boshlab, 10 dan ortiq qadimiy odamlarni suyak qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'ldilar. Bularni yoshi kaliyorgan usuli bilan 2 milliondan 4 million yilgacha aniqlandi. Ammo mehnat qurollari-ni yasashni bilganlarini yoshi 2,1 million yilni ko'rsatdi. Dastlab Luis Liki so'ng uni o'g'li Robert Liki tomonidan 1965 yildan boshlab Keniya mamlakatini Rudol'f ko'li atrofida olib borgan qidiruv ishlari natijisida avstrolopiteklarni 5 milliondan 5,5 milliongacha bo'lgan davrda yashagan suyak qoldiqlari topildi. Ammo bular xali hayvonot dunyosidan insoniyat dunyosiga o'tmagan edilar, ya`ni bular xali mehnat qurollarini yasashni bilmas edilar. Lekin shu ko'l atrofidan Omo vodiysida yashagan va mehnat qurollarini yasashni bilgan avstrolopiteklarga nisbatan 500 ming yil avval mehnat qurollarini yasashni bilgan avstrolopiteklarni qoldiqlari

² Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974, с. 30.

topildi. efiopiyani Vest-Gonasidan topilgan avstrolopiteklarning yoshi hozirgi kunda eng ulug'i hisoblanib, uni 2,8 million yil bilan belgilangan³.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarga xulosa qilib, shuni aytish kerakki Olduvey madaniyatining ijodkorlari xali mehnat quollarini yasashni bilmagan avstrolopiteklar emas balki, ana shu avstrolopiteklarning avlodi bo'lgan Noto 'a'Shz (bilag'on odam) lar bo'lganlar. Chunki, bu madaniyatning eng qadimiysi mutloq yoshi Koobi g'ora qarorgoxida 2,6 millionni xuddi shu joyni qadimiyroq gorizontida esa 2,8 million yil bilan aniqlangan № 1470 raqam bilan belgilangan xajmi 800 sm³ ga teng bo'lgan qadimgi odamni bosh suyagi topilgan. Aytilganlarning barchasi Olduvey madaniyatini ijodkorlari tarixini 3 million yil bilan belgilaydi. Lekin bu fikr bilan hamma antropologlar ham kelisha olmaydilar. Ular Olduvey madaniyatini tan olmaydilar. Bu madaniyatni yaratgan «bilag'on odam» larni avstrolopitek-lardan xech qanday farqlari yo'q deydilar. Lekin ko'pchilik paleolit davrining mutaxassislari Olduvey madaniyatini tan oladilar va uni odam tarixini boshlanishi bo'lgan quyi paleolit davri bilan belgilab, uni kishilik jamiyatini ashell'gacha bo'lgan taraqqiyot yo'li deydilar. Ular bunday kat`iy fikrga kelganlarida Olduvey odamlarini mehnat quollarini yasaganliklariga va ulardan foydalanganliklariga asoslanadilar. Olduvey madaniyatini ijodkorlari odamlar bo'lgan aks xolda ular har xil ko'rinishdagi garchi ko'rinishi sodda bo'lsada mehnat quollarini bizga meros qilib qoldirmagan bo'lar edilar. Hayvonlar bo'lsa juda oddiy bo'lsada birorta mehngt qurolini yasamaganlar. Chunki ular bunga qodir emaslar. Shuning uchun ham biz bu mehnat quollarini ijodkorlariga odamlar degan so'zdan boshqa nom bera olmaymiz deydilar. Shuni aytish kerakki avstrolopiteklar ham mehnat quroli sifatida kundalik hayotlarida toshlardan yoki yog'ochlardan foydalanganlar, ammo tabiat qanday in'om etgan bo'lsa shundayligicha. Lekin, «bilag'on odam» lar esa o'zlari foydalanishga mo'ljallagan tosh bo'laklarini yoki yog'och tayoklarni o'zlari uchun qulay shaklga keltirganlar. Xuddi ana shu xolat ular o'rtasiga aniq chegara yoki farqni qo'ygan. Birinchilari

³ Абдулкасимов А.А., Аббасов С.Б. Ландшафтно-экологические исследования Центрального Кызылкума. Самарканд, изд-во СамГУ, 2001.- С. 5;

hayvonlar, ikkinchilari odamlar bo'lganlar. Shuni aytish kerakki Olduvey madaniyatini tan olmovchilar pitekantroplarni xaqiqiy birinchi odamlar deb tan oladilar. Avstrolopiteklar bilan «bilag'on odam» larni tashqi ko'rinishlarida xech qanday fanda yo'q. Pitekantroplarda esa avstrolopiteklarga nisbatan farq katta. Hozirgi odamlarga yaqin xususiyatlar ko'proq deydilar. Ammo ular pitekantroplarni «bilag'on odam»lardan qariyib ikki barorbar keyin yashaganlarini, bunday katta davr mobaynida tashqi ko'rinishida ancha o'zgarishlar bo'lishi tabiiyligini hisobga olmaydilar.

Qizilqum cho'li Turon tekisligining katta qismini egallab, Sirdaryo va Amudaryoning oralig'ida joylashgan. U janubdan janubi-sharqqa qarab Zarafshon vodiysi hamda Nurota tog' tizmalari bilan, janubi-g'arbda Amudaryo vohasi bilan, shimoli-g'arbda Orol dengizi va shimol hamda shimoli-sharqda Sirdaryo vohasi bilan chegaradoshdir. Ushbu hududlardagi cho'lning umumiyligi maydoni 300 ming km². Ma'muriy jihatdan Qizilqumning katta qismi O'zbekistonga, kamroq, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududlariga to'g'ri keladi⁴.

Qizilqum cho'li tekis relyefga ega bo'lib, janubi-sharqdan shimoli-g'arbga qarab pasaygan va bu pasayish hammasi bo'lib 300-53 m. ni tashkil qiladi. Ammo cho'l relyefi quruq va yopiq havzalar hamda bir-biridan uzoq va balandligi dengiz sathidan 922 m gacha yetadigan tog'lardan tarkib topgan.

Yirik qumli landshaftlar orasidan kuchli buzilgan past bo'yli tog'lar ko'tarilib turadi: Tomditog' (888 m), Quljuqtog' (784 m), Bo'kantog' (758 m), Aristantog' (698 m), Auminzatog' (639 m), Jetimtog' (521 m), Sulton-Uvaystog' (485 m), Kazaxtov (394 m) va boshqalar. Quruq havzali landshaftlar orasida eng yiriklari Oyoqog'itma, Mingbuloq, Qoraqatin hamda Mullali kabilar hisoblanadi.

Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi cho'l hududlarni tabiiy-jo'g'rofik rayonlashtirish T.V. Zvonkova⁵ tomonidan amalga oshirilgan. U Qizilqumdag'i qumlarni landshaftlarga ko'ra turlash va xaritalashtirish asosida to'rtta tabiiy-jo'g'rofiy bo'llimlarga ajratgan: 1) Quyi amudaryo, 2) Shimoliy Qizilqum, 3)

⁴ Абдулжасимов А.А., Аббасов С.Б. Ландшафтно-экологические исследования Центрального Кызылкума. Самарканд, изд-во СамГУ, 2001.- С. 6;

⁵ Звонкова Т.В. Бухарская область. // Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент, 1965. -С. 56;

Markaziy Qizilqum hamda 4) Janubiy Qizilqum. Ushbu bo'limlarning har biri alohida tabiiy-jo'g'rofiy rayonlarga ajraladi. Masalan, Markaziy Qizilqum bo'limi quyidagi rayonlarga bo'linadi: 1) past va shag'alli cho'l rayoni, 2) yarim cho'l va qoyatoshli Quljuktog' va 3) qumli-gilli, shag'alli va sho'rxokli cho'llar.

Markaziy Qizilqum iqlimining xarakterli xususiyati issiq, o'ta quruq hamda keskin kontinentalligidir. Bunday iqlim sharoitlarining shakllanishi sabablari, birinchidan, Markaziy Qizilqumning o'rtacha va subtropik iqlim poyaslaridagi cho'llar chegarasida joylashganligi va ushbu chegaradosh cho'llarning Qizilqumni katta hajmdagi quyosh nuri hamda termik resurslar bilan ta'minlab turishi; ikkinchidan, atmosfera almashinuvining o'ziga xosliklari va havo massalarining qaytarilishi xarakteri tez-tez tiniq, quruq va kam bulutli ob-havo takrorlanishini ta'minlaydi; uchinchidan, Markaziy Qizilqumning nafaqat kontinental O'rta Osiyo hududlari markazida, balki yirik Yevroosiyo materigi ichkarisida, okeanlardan yiroqda joylashganlidir.

Markaziy Qizilqum iqlimining kontinentalligi ob-havo sharoitlari bilan belgilanadi. Yoz bu yerda juda issiq, iyulning o'rtacha harorati 25-300. Sutkalik, oylik va yillik harorat o'zgarishlari tez-tez bo'lib turishi, mavsumlarning tez-tez almashinuvi, yog'inlarning va bulutlarning kamligi, quyoshli kunlarning ko'pligi, havoning quruqligi va h.k. lar xarakterlidir. Bularning barchasi hozircha o'zgartirib bo'lmaydigan Markaziy Qizilqum iqlimining konservativ xususiyatlaridan biridir.

O'rta Osiyoning shimoli stasionar bosim hududida joylashgan. Shuning uchun O'rta Osiyo cho'llarining, jumladan Markaziy Qizilqumning ham shimolida yil davomida shimoliy shamollar esib turadi: qishda – ko'proq oyiga o'rtacha 4 dan 6,5 m\sek tezlikda, bahorda ham – shimoli-sharqiy tomondan, biroq uning tezligi 7-8 m\sek gacha tezlashadi; yozda – shamoldan shamol o'rtacha 4-6 m\sek tezlikda, ammo ayrim punktlarda u shimoli-sharqiy tomondan esadi.

Markaziy Qizilqum iqlim sharoitlarining o'ziga xosliklaridan biri termik zahiralarning zonalar bo'ylab qat'iy bo'linganlidir va bu cho'l o'tloqlarida yaydoq chorvachilik qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Agar shimolda termik

resurslar 42000 bo'lsa, janubda ular 50000 dan oshadi. Shundan kelib chiqib, Markaziy Qizilqum hududlari uchta termik zonalarga ajraladi: o'rtacha issiq, issiq va juda issiq⁶.

O'ta kontinentalligi va quruqligi sababli Markaziy Qizilqum hududlarida yer usti oqar suvlari deyarli uchramaydi. Hozirgi kunda aholini va chorvachilikni ta'minlaydigan chuchuk suv zaxiralari quduqlar, artezian suvlari va ba'zan sardobalarni tashkil qiladi.

Markaziy Qizilqumdagagi cho'l pasttogg'lari ham suvsizligi bilan xarakterlanadi. Ushbu kichik tog' tepaliklarida tog' irmoqlari va soylar deyarli uchramaydi. Ko'pchilik past tog'lar qoldiqlarida buloq hamda chashmalar kabi suv manbalari uchramaydi. Tomditog', Bo'kantog', To'xtatog' va boshqa ayrim tog'lar esa bundan mustasnodir va tilga olingan tog'larda turli xil debitli bosimli suv manbalari uchraydi. Qizilqum tog'laridagi va ularning atrofidagi prolyuvial tekisliklarda yer usti suvlari paydo bo'lib turadi, biroq bir vaqtida yo'qolib ketadi. Bu yomg'ir hamda qor-muz suvlaridir.

Yog'ingarchilik mo'l keladigan bahor oylarida tog'lardan mavsumiy jilg'alar oqib tushadi va ulardan may oyidayoq ko'lmaqlargina saqlanib qoladi. Ushbu ko'lmaqlar namlikka talabchan o'simliklarni hamda bahorda uchib o'tadigan uchuvchi-suzuvchi qushlarga asqotadi.

Tuproq-o'simliklar qatlami va hayvonot olami cho'lning turli xil ko'rinishdagi landshaftli geokomplekslarini tashkil qiluvchi ajralmas qismi hisoblanadi. Boshqa rayonlarda bo'lgani singari, Markaziy Qizilqum sharoitida ham sog' tuproqning tarqalishi relyef hamda geologik tuzilishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yerda sog' tuproq tiplarining differensasiyasi va ular turlari suvi oqib chiqib ketmaydigan botiqlarda, qoldiq pasttogg'larda, tog'oldi prolyuvial tekisliklarda va shamol ta'siri asosida vujudga kelgan qumli cho'llarda yaxshi namoyon bo'ladi. Shunday qilib, Mingbuloqsoy, Oyoqog'itma, Qoraqatin va boshqa suvi chiqib ketmaydigan quruq havzalarda sog' tuproq komplekslari

⁶ Бабушкин Л.Н., Когай Н.А. Физико-географическое районирование Узбекистана. // Труды ТашГУ, вып. 231. – Ташкент. 1964. -С. 54;

ancha murakkab tuzilishga ega. Yer osti suvlari chuqurroqda joylashadigan barcha baland hududlarda qumli, taqirsimon, loysimon hamda gips aralash kulrang tuproq keng tarqalgan. Yer osti suvlari past hududlarda esa, sho'rxok, nam sho'rxok, solodlar va h.k. lardan iborat sho'rplashgan yerlar shakllangan. Suvlari tashqariga chiqib ketmaydigan havzalarning tik qiya bortlarida sog' tuproq qatlami va o'simliklarsiz yalang'och o'zak jinslar chiqib qolgan⁷.

Cho'lning qumli va qumloq tuproqli sog' tuproqlari uchun genetik gorizontlarga ko'ndalang kesmasi kam farq qilishi xarakterlidir. G'ovak, ba'zi joylarda biroz qotgan chirigan ushbu yerlar gorizontining 10-15 sm qalinligi sariq-kulrang yoki qizg'ish-kulranglarga ega. Qumli va qumloq tuproqli yerlarda chiriganlik foizi nisbatan kam miqdorda⁸.

Markaziy Qizilqumda o'simliklar dunyosini hosil qiluvchi landshaftlar juda katta. Bu yerda vegetasiya mavsumi uzoq, ilk bahordan to kech kuzgacha davom etadi. Shuning uchun Qizilqum cho'lining o'simliklar qoplami uchun yorqin ifodalanganlik jihatni va ekologik sharoitlarning mavsumiyligi xarakterlidir. Bu hol Qizilqum o'simliklar qoplaming asosiy xususiyati hisoblanadi⁹. Geobotaniklar tomonidan Qizilqumda murakkab o'simliklarning 900 turi aniqlangan¹⁰. Markaziy Qizilqumdagi pasttogg'lar florasi 560 tur, 263 oila va 48 turkumga mansubdir¹¹. Janubi-G'arbiy Qizilqumda o'simliklarning 580 turi aniqlangan¹².

Cho'lning eng tipik o'simliklaridan biri yarim butali kulrang shuvoq hisoblanadi. Markaziy Qizilqumda ikki xil shuvoq keng tarqalgan: shimolda kulrang shuvoq yoki jusan, janubda esa janub shuvog'i. Shuvoqlar tog'oldi rayonlarida ham keng maydonlarni egallaydi.

⁷ Бузков Н.А., Насыров Я.М. Почвы Юго-Западного Кзылкума. – Ташкент. 1961. -С. 73;

⁸ Бузко Н.А., Муравьева Н.Т. Почвы // Природные условия и ресурсы Юго-Западного Узбекистана. – Ташкент. 1965.- С. 128;

⁹ Закиров П.К. Ботаническая география низкогорий Кзылкума и хребта Нурагай. Ташкент. «ФАН», 1971. -С. 245;

¹⁰ Гранитов И.И. Растительный покров Юго-Западных Кзылкумов. Ташкент, Кн. 2. 1967.- С. 117; Коровин Е.П. растительность Средней Азии и Южного Казахстана. Кн. 1, 2. 1961. -С. 65; 1962.-С. 178;

¹¹ Закиров П.К. Закиров П.К. Ботаническая география низкогорий Кзылкума и хребта Нурагай. Ташкент. «ФАН», 1971.-С. 245;

¹² Гранитов И.И. Растительный покров Юго-Западных Кзылкумов. Ташкент, Кн. 2. 1967. -С. 117; Коровин Е.П. растительность Средней Азии и Южного Казахстана. Кн. 1. 1961.-С. 65;

Markaziy Qizilqum ham, Turon cho'l viloyati singari hayvonot olami turlariga ham juda boyadir. Bu holat shu bilan bog'liqki, chunki ushbu mintaka turli mamlakatlar hayvonot olami tutashadigan maydon hisoblanadi. Uning faunasi hind, markaziy osiyo, himolay, o'rtayer, oldosiyo va o'rtaosiyo elementlarini qamrab oladi¹³.

Markaziy Qizilqumda iqlimning, tuproqning, o'simliklar qoplaming va hatto hududning litologik tuzilishi xususiyatlaridan kelib chiqib hayvonot olami turlarining tarkibi keskin farq qiladi¹⁴.

T.Z. Zaxidov va R.N. Meklenbursev (1969) ko'char qumlarni kelib chiqishiga ko'ra birlamchi va ikkilamchi variantlarga ajratadi. Ushbu mualliflarning ta'kidlashicha, birlamchi ko'char qumlar odam paydo bo'lgunga qadar ham hukm surgan.

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti sharoitlarida cho'llashish jarayonlari insoniyat oldida turgan muhim regional va global ekologik muammolardan biridir. Quruq landshaftlarda cho'llashishning rivojlanishi tabiiy hamda antropogen faktorlar bilan bog'liq. Cho'llashish jarayonlarining rivojlanishi quruq hududlarda ekologik mutanosiblikning buzilishi natijasidir.

Cho'llashish jarayonlari Osiyo, Afrika, Avstraliya, Janubiy va Shimoliy Amerika mamlakatlarida keng rivojlangan. YuNEP ma'lumotlariga ko'ra cho'llashish jarayonlarining o'sishi oqibatida dunyoda yiliga yer balansidan 70 ming km² hosildor yerlar yo'qolib boradi.

Sayyoramizda aholining intensiv ravishda o'sishi va qishloq xo'jaligining intensivlashuvi oqibatida insoniyat ilgari yashash qiyin bo'lgan, iqlimi og'ir rayonlarga kirib bordi va bu joylarning tabiiy zaxiralarini o'z faoliyati uchun ishlata boshladi. Hozirda materiklarning 30 % ni tashkil qiladigan arid hududlar ham jiddiy antropogen ta'sirlar ostida qolmoqda. Ushbu hududlarning 80 % qishloq xo'jaligi uchun sug'oriladigan, 170 mln. ga maydoni lalmi dehqonchilikka

¹³ Абдулкасимов А.А., Аббасов С.Б. Ландшафтно-экологические исследования Центрального Кызылкума. Самарканд, изд-во СамГУ, 2001.-С. 42;

¹⁴ Захидов Т.З., Мекленбурцев Р.Н. Природа и животный мир Средней Азии. Т. 1 и 2. 1969, 1971.-С. 65. 78;

va 3,6 mld. ga – yaylovlar sifatida foydalaniylmoqda. Hozirda arid hududlarda yer shari aholisining taxminan 20 % aholisi istiqomat qilmoqda.

Iqlim, xo’jalikning xususiyatlariiga eng kuchli ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillardan biridir. U bevosita (sovuj, iliq, quruq, namgarlik) emas, balki ovchilik va ovchilikning asosiy omillari bo’lgan o’simliklar olami va hayvonot dunyosi orqali ta’sir etadi. Odamning ushbu komponentlarga tobelligi tarix qadimiylashgan sari kuchayib boradi¹⁵.

Iqlimning yoki landshaftlar o’zgarishining muhim belgisi ibtidoiy madaniyatlarning tarqalishi areallarining qisqarishi yoki kengayishi bilan belgilanadi. Iqlim o’zgarishlarining yana bir belgisi madaniyatlar xarakterining o’zgarishi bilan ham belgilanadi¹⁶.

Zarafshon havzasi tabiat tarixi O’rta Osiyoning boshqa hududlaridagi landshaftlar hosil bo’lishi bilan bevosita bog’liqdir. Biroq, Zarafshon havzasining pleystosen va golosen davri paleoiqlimi va paleoekologiyasi yetarlicha o’rganilmagan.

Cho’l hududlarida, jumladan, Zaravshonning quyi oqimida, Amudaryoning o’rta va quyi oqimida, Orol dengizi atroflarida va Kaspiybo’ylarida so’ngi pleystosen va ehtimol, undan keyingi davrlarda ham uncha iliq bo’lmagan, nisbatan nam semiarid (yarim quruq) tipdagi sharoit hukmron bo’lgan. Ushbu namlashuvning xarakterli belgilaridan biri cho’l botiqlarida shamolli erozion chuqurlashuvning to’xtashi va ularda subakval (prolyuvial va ko’l) cho’kmalarining to’planishi bo’ldi. Cho’l botiqlarida so’ngi pleystosen davri plyuvial ko’llarining hukm surganligi haqida ularda ko’l terrasalarining mavjudligi hamda chuchuk suvlarda bo’ladigan mollyuskalar chig’anoqlarining topilishi guvohlik beradi.

¹⁵ Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974, с. 19;

¹⁶ Бадер О.Н. Проблема смещения ландшафтных зон в голоцене и археология. – в кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974, с. 225-229;

Atrof muhitning qulay bo’lishi neandertallarning ham tog’li va ham cho’lli hududlariga keng tarqalishiga olib keldi. Qizilqum hududlaridan ham qator muste davri yodgorliklari aniqlangan (Qizilnura, Lavlakon, Kindiktepa va h.k.)¹⁷.

Pleystosenning ikkinchi yarmi sovuq va quruq iqlim sharoitlari hukm surganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu arid faza to o’rta golosen davrigacha davom etgan (er. av. 8 ming yilliklarga). Bu davr “janoq” arid fazasi deyiladi.

Golosen davrida tabiiy muhit va insoniyat jamiyat taraqqiyoti tez suratlar bilan kengayishi va ular orasidagi o’zaro aloqalarning murakkablashuvi orqali sodir bo’ldi.

Markaziy Qizilqumda tabiiy cho’llashish jarayonining rivojlanishi ko’pgina faktorlar ta’sirida sodir bo’lmoqda: geologik, geomorfologik, geoekologik, gidrogeologik, iqlimiylar, hidrologik, tuproq qatlami, o’simliklar hamda zoogen faktorlar. Cho’llashish masshtablari zonal, provinsial, regional hamda mahalliy shakllarga ega va ular to’la dog’simon, yo’l-yo’l hamda nuqtasimon xarakterda bo’lishi mumkin¹⁸.

Markaziy Qizilqum tabiiy komplekslarining cho’llashish jarayoniga tarixiy davrdagi iqlim o’zgarishlari katta ta’sir ko’rsatmoqda. Paleoklimatik¹⁹ va paleogeografik²⁰ tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, eosen davrida O’rta Osiyo hududlarida o’rmon hamda o’rmon-dasht landshaftlari hukmron bo’lgan. Ushbu landshaftlarning aridlashish jarayoni oligasen davrining o’talarida sodir bo’lib, bu davrda progressiv muzlash va iqlim sharoitlarining kontinentallashuvi quchaygan. Pliosen davriga kelib bu jarayon yanada kuchaygan. To’rtlamchi davrga kelib aridlashuv jarayoni yana ham kuchayadi va O’rta Osiyoda cho’l landshaftlari paydo bo’ladi hamda ularning maydoni kengaya boshlaydi.

Muzlik davridan keyin bir martagina iqlim o’zgarishi sodir bo’lgan. Bu davrda iqlim anchayin isiydi va bu isish 2 ming yil davom etgan (7-5 ming yillar muqaddam). O’rta Osiyoning janubi pliosen davrida nisbatan ko’proq arid bo’lgan,

¹⁷ Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. – Душанбе. Дониш, 1973, с. 10-11;

¹⁸ Орловский Н.С. Механизм опустынивания и его последствия // Опыт борьбы с опустыниванием в СССР. – М.: Наука. 1988.-С. 364;

¹⁹ Будыко М.И. Современное изменение климата. Л.: Гидрометеоиздат. 1977.- С. 48;

²⁰ Марков К.К. и др. Четвертичный период. Т. 1. М.: изд-во МГУ. 1965.- С. 235;

biroq taxminan 10300 yillar muqaddam yog'ingarchilikning ko'payishi sababli namlik fazasi boshlanadi. Ammo, 3800 yillar burun yana quruq davr boshlanib, bu iqlim sharoiti kichik o'zgarishlar bilan hozirgi kungacha davom etib kelmoqda²¹.

Hozirda O'rta Osiyoning suvsiz cho'llarida keng tarqalgan daryolar ning quruq o'zanlari ushbu hududlarning qadimgi odamlar tomonidan qalin o'rnashuvi bu yerlarning tabiiy sharoitlari o'tmishda boshqacha bo'lganligidan dalolat beradi.

O'tgan asrning boshlarida qadimda yoki hyech bo'lmaganda golosen davrida O'rta Osiyo tekisliklarida iqlimning o'zgarmaganligi haqidagi fikrlar mavjud edi. Ushbu fikrlar S.P. Tolstov²² tomonidan surilib, A.S. Kes tomonidan himoya qilingan edi²³. Ularning fikricha, qadimgi va o'rta asrlarda insoniyatning ushbu hududlarga migrasiya qilishi tabiiy emas, balki sosial sabablar bilan bog'liqdir va bu jarayonda asosan o'zaro urushlar, feodal munosobatlar va h.k. lar asosiy rol o'ynagan, deb hisoblaganlar. Biroq, sosial inqirozlar ancha keyingi tarixiy bosqichlarda paydo bo'lib, mezolit va neolit davrlariga bu aloqador emas. Shuning uchun aholining ko'chish jarayonlarini faqat ijtimoiy sabablar bilan bog'lash noto'g'ri bo'lar edi²⁴.

Keyinchalik A.V. Vinogradovning tadqiqotlari "yer yuzida O'rta Osiyo tekistliklaridek odamzot tomonidan o'ta zich joylashgan hududlarni topish qiyin va bu holat tabiiy sharoitlar bilan bog'liq edi", degan xulosalarga olib keldi. O'z fikrini tasdiqlash uchun A.V. Vinogradov arxeologiyada ma'lum bo'lган quyidagi dalillarni keltiradi: 1. O'rta Osiyo cho'llarida aniqlangan va yaxshi o'rganilgan paleolit davri yodgorliklari o'rta paleolitga xosdir; 2. Ushbu hududlarda so'ngi paleolit davri yodgorliklari deyarli aniqlanmagan; 3. Mezolitning oxiri va neolit (10-8 ming yilliklar) davrining boshlarida Qizilqum, Qoraqum, Muyunqum, Shimoliy Qoraqum (Orolbo'yidan shimolroqda), Ustyurt platosi va boshqa joylar demografik portlash oqibatida u yoki bu darajada o'zlashtiriladi; 4. Arxeologik

²¹ Орловский Н.С. Механизм опустынивания и его последствия // Опыт борьбы с опустыниванием в СССР. – М.: Наука. 1988.- С. 364;

²² Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.:Изд. Вост. Литературы, 1962. -С. 321;

²³ Кесь А.С. Палеогеография Аральского моря в позднем плейстоцене и голоцене //В кн. Палеогеография Каспийского и Аральского морей в кайназое. Часть 2. М.: изд-МГУ 1963.-С. 97-106;

²⁴ Трофимов Г.Н., Трофимова Ю.Г. Климатическая ситуация и условия обитания древнего человека на равнинах Средней Азии в голоцене. Ташкент. НУУ. 2006.-С. 216-219;

materiallarning guvohlik berishicha, faqatgina er. av. III ming yillik oxiri va II ming yilliklarda ushbu cho'llardan aholi ko'chib ketishi boshlanadi²⁵. Bunga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, ushbu hududlarga odamning ko'chishi mahalliy emas, balki keng miqyosli xarakterga ega.

O'rta Osiyo cho'llarining qadimgi odamlar tomonidan o'zlashtirilishining asosiy omili ushbu hududlarning suv bilan ta'minlanganligidadir. Bunday doimiy suv manbalari bo'lib Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va h.k.lar xizmat qilgan. Ularning sersuvligi mahalliy hududlarning iqlim sharoitlari bilan chambarchas bog'liqdir. Qizilqum hududlaridagi taqirlar atrofida qadimgi odamlarning yashaganligi sababli, ularni sersuv bo'lganligi va qadimgi daryo o'zanlarining o'zgarib turganligi haqida fikr yuritish mumkin.

Amudaryoning Oqchadaryo, Qoraqamish va Orolbo'yi, Sirdaryoning Janadaryo, Quvondaryo, Qozali bo'g'ozi, Zarafshonning Echkiliksoy va Daryosoy o'zanlari hamda janubda Gujayli, Moxodaryo, Tayqir bo'g'ozlari bo'lganligi aniqlangan. O'rta Osiyo hududlari qadimgi gidrografik tizimining o'zgarishi asosiy sababi daryolar suvi miqdorining o'zgarishidadir va bu o'zgarishlar albatta, iqlim sharoitlari bilan bog'liqdir. Daryolar ketidan odamlar ham ko'chib borganlar²⁶.

O'tgan asrning 50-70-yillarida keyingi sovish bo'lib o'tdi va bu qurg'oqchilining tezlashuviga, atmosfera yog'inlari sonining kamayishi va noregulyarlashuviga olib keldi. Bunday tabiiy holat ekologik zahiralardan noto'g'ri foydalinish bilan birga O'rta Osiyo va Markaziy Qizilqumning qumli, sho'rxokli, loyli hamda pasttogg'li landshaftlarida cho'llashish jarayonining keng taraqqiy qilishiga olib keldi. Cho'l landshaftlari iqlimining aridlashishiga yozgi mavsumda tez-tez takrorlanib turadigan chang va qum bo'ronlari ham katta ta'sir qilmoqda²⁷.

²⁵ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М.: "Наука". 1981.- С. 172.

²⁶ Мамедов Э.Д. Изменения климата Среднеазиатских пустынь в голоцене. В кн. Колебания увлажненности Арабо-аспийского региона в голоцене. М.: Наука. 1980. -С. 170-175;

²⁷ Абдулкасимов А.А., Аббасов С.Б. Ландшафтно-экологические исследования Центрального Кызылкума. Самарканд, СамГУ. 2001. -С. 113;

E.D. Mamedov va O.V. Zuyevalar tomonidan Qizilqum hududlari uchun golosen davri iqlim o'zgarishlarining jadvali ishlab chiqilgan (1-jadval)²⁸. Quyida biz ushbu iqlimiylar tarix bosqichlari haqida qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tamiz va bu Ko'kayoz 1-8 ustaxonalarini davrlashtirish uchun muhim hisoblanadi.

Janoq aridi. So'ngi pleystosenning oxirlarida kaspiybo'yи hududlarida sovuq hamda quruq iqlim sharoitlari hukmron bo'ladi. Ushbu davrning boshlanishi so'ngi vyurmning asosiy bosqichlariga to'g'ri keladi. Kaspiy shkalasi bo'yicha janoq aridi aftidan, so'ngi xvalin hamda mangishloq darlarini o'z ichiga oladi. Ushbu davr hodisalari haqida yozar ekan, P.V. g'ederov: "...yuqori xvalin davri dengizining regressiyasi notekis, sathining o'zgarishidagi ancha davomiy to'xtashlar bilan sodir bo'lgan"²⁹, deb ta'kidlaydi. Bu davrda dengiz sathining pasayishi quruqlikdan oqib tushadigan suv oqimlarining kamayishi va parlanishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan. P.V. g'edorovning fikricha, xvalin davrida iqlim ancha quruq va issiq bo'lgan³⁰. Ammo bu davrning issiq bo'lganligi keyingi yillarda Orol botig'ida olib borilgan so'ngi vyurm bosqichining paleogeografik konsepsiysi va paleogeografik ma'lumotlar bilan tasdiqlanmadı.

Orol dengizida olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha bu yerdan 7 ta dengiz sathlari aniqlangan va ularning absolyut balandligi 72-73 m. Qadimgi Orol terrasasining balandligi 57-58 m, so'ngi Orol terrasasining balandligi esa, dengiz sathidan 54-56 m ni tashkil qilgan. Bundan tashqari Paskevich bo'g'ozidan olingan kolonkaga ko'ra bu yerda I.G. Veynberg hamda V.Ya. Stellelar tomonidan orol dengizi regressiyasining barqaror va davomiy "paskevich" bosqichi ajratilgan³¹. Paskevich regressiyasining xronologik chegarasi hali aniqlangan emas. Ammo, uning yuqori xronologik chegarasi arxeologik tadqiqotlar yordamida

²⁸ Джуракулов М.Д., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зеравшана. Ташкент - Уқитувчи-1986. С. 112;

²⁹ Федоров П.В. Стратиграфия четвертичных отложений и история развития Каспийского моря. – труды геол. Ин-та АН СССР, вып. 10. – М.: Изд-во АН СССР, 1957, с. 276;

³⁰ Ўша муаллиф. Подразделение хазарских отложений и их положение в шкале каспийского плейстоцена. – Бюлл. Моск. Общ-ва испыт. Проироды. Отдел геологический. 1972. №2. С. 85;

³¹ Вейнберг И.Г., Стelleлар В.Я. Позднечетвертичные стадии развития Аральского моря и их связь с изменениями климатических условий этого времени. – В кн.: Колебания увлажненности Арало-Каспийского региона в голоцене. – М.: Наука, 1990, с. 176-1787;

aniqlanishi mumkin. A.V. Vinogradov Qiziqum hududlarida mezolit davriga oid yorqin yodgorliklarining uchramasligiga (so'ngi mezolit davri materiallari bundan mustasno) va aksincha, neolit davri materiallarining ko'pligiga asoslanib ibtidoiy odam uchun noqulay bo'lgan sharoitlardan qulay lavlakon plyuviali bosqichidagi iqlim sharoitlariga o'tish davri (paskovich bosqichini) xronologiyasini er. av. VIII-VII ming yilliklar bilan belgilagan.

A.S. Kesning paleogeografik sxemasiga ko'ra, so'ngi pleystosenning oxiri va golosenning katta qismida Amudaryoning suvlari Sariqamish botig'iga va so'ngra Uzboy bo'y lab Kaspiy dengiziga quyilgan. Orolga esa bu davrida faqatgina Sirdaryogina quyilgan³². G.N. Trofimovning tadqiqotlariga ko'ra, Paskevich davrida Orol dengizi va uning atrofidagi hududlarda muzlik oldi viloyatlariga xos bo'lgan quruq vasov uq i qlim sharoitlari hukmron bo'lgan³³.

Lavlakon plyuvial davri. Nisbatan nam iqlim sharoitlariga ega Lavlakon plyuviali davri haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1966 yilda paydo bo'ldi³⁴. Biroq, Lavlakon plyuviali nomi 1972 yilda keng tarqaldi³⁵. Hozirda ushbu plyuvial haqida ko'plab ilmiy nashrlar mavjud³⁶.

Sovuqdan quruq hamda iliq iqlim va nisbatan nam sharoitlariga o'tish bundan 8 ming yillar burun boshlangan. Lavlakon plyuvialining landshaft-iqlimi sharoitlari Qizilqum va Ustyurtda ibtidoiy odamning keng tarqalishiga olib keldi. Lavlakon ko'li sohillarida mezolit va bronza davrlariga oid yuzdan ziyod hamda shu va undan keyingi davrlarga oid 300 dan ziyod punktlar aniqlangan³⁷. O'ttizdan ziyod topilmajoylar Bo'kantog', Tomditog' va Kopettog' hudularidan

³² Кесь А.С. Палеогеография Аральского моря в позднем плейстоцене и голоцене. – В кн.: Палеогеография Каспийского и Аральского морей в кайназое. – М.: изд-во МГУ, 1983, с. 103;

³³ Джуракулов М.Д., Мамедов Э.Д. Геология археологических памятников Зеравшана. Ташкент – Уқитувчи – 1986. С. 134;

³⁴ Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Комплексные архео-географические исследования в районе Лявляканских озер (Внутренние Кызылкумы). – В кн.: Тезисы докладов пленума института археологии за 1986 г. – М.: 1974, с. 203;.

³⁵ Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Стратиграфия четвертичных отложений низовьев Зеравшана и Юго-Западных Кызылкумов в свете новейших геологических и археологических исследований. – Бюлл. Комиссии по научн. Исслед. Четвертичного периода. – М.: Наука. 1972, с. 142-148;.

³⁶ Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобытный Лявлякан. Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. – М.: Наука. 1975. С. 234-255;

³⁷ Виноградов А.В., Мамедов Э.Д. Первобътнй лявлакан. Этапы древнейшего заселения и освоения внутренних Кызылкумов. – М.: Наука. 1975. С. 234-255;

aniqlangan³⁸. Ushbu topilmajoylarning materiallari xronologik jihatdan er. av. VI-V dan II ming yilliklarga bo'lgan yirik davrlarni o'z ichiga oladi.

Tubelek aridi. Er. av. III-II ming yilliklarda zamonaviy tipdagi quruq hamda issiq iqlim sharoitlari qaror topadi. Iqlim sharoitlarining yomonlashuvi ko'llarning yo'qolishi yoki sho'rplashuvi, yirik daryolar sistemasining tushkunlikka uchrashi (Amudaryo), eolli jarayonlarning kuchayishiva Qizilqum hamda Ustyurt hududlarida aholi sonining kamayishiga olib keldi. Bu davrning iqlimi monoton arid holatida bo'lmasdan, u yoki bu darajada qurg'oqchiliklar bo'lib turganligi aniqlangan. Bu davrda Sultonsanjar (sanjar) mikroplyuvialining hukm surganligi guvohlik beradi.

Sanjar mikroplyuviali. XIII asrdan XIX asrning birinchi yarmi Yevropa va Shimoliy Amerikada "kichik muzlik davri" nomi bilan mashhur. Kichik muzlik davrida O'rta Osiyo tog'laridagi sovish muzliklar uzunligi va maydonining kattalashuvida o'z aksini topdi va bu XIX asrning birinchi yarmiga kelib o'zining kulminasion nuqtasiga yetdi³⁹. O'rta Osiyoning tekisliklarida sovish, parlanishning kamayishi va ehtimol, atmosfera cho'kindilarining ko'payishi tabiiy jarayonlardagi ko'plab va turli tuman o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Daryolarda suv hajmi ko'paydi. Sirdaryo Orolga hoziridan ko'ra ikki marta ko'p suv oqizib borgan. Amudaryoning suvlari Sariqamishni va Assak-Audan botig'ini bosib ketdi (57-58 m), natijada Uzboy bo'ylab yana Kaspiyga suv oqib tusha boshladi. Kaspiy dengizining sathi 6-6,5 m ga ko'tarildi.

Termiz kserotermik fazasi. XIX asrning o'rtalarida zamonaviy tipdagi iqlim sharoitlari qaror topadi. Natijada tog'lardagi muzliklar hajmi kichraydi, ko'plab mayda ko'llar yo'qolib ketdi va cho'llashish jarayonlari kuchaydi: tuproq sho'rplashuvi, deflyasiya va h.k.lar.

Shunday qilib, Qizilqumning golosen davri iqlimi tarixi muzlashlar va quruq sharoitlarning kirib kelishining o'zgarishlari davridir. Ushbu iqlim

³⁸ Мамедов Э. Д. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии. – в кн.: Культура и искусства древнего Хорезма. – М.: Наука. 1981, с. 82;

³⁹ Герасимов В.А. Тенденция развития горных ледников северного полушария в послеледниковое время. – в кн.: Труды высокогорного геофиз. Ин-та, вып. 18. Снег и снежные лавины. – Л.: Гидрометеоиздат, 1972, с. 132;

sharoitlari bu hududlarda insoniyat yashab qolishi uchun eng muhim olmillardan hisoblangan.

II BOB. O’rta Osiyoda paleolit davrini o’rganish tarixi.

O’rta Osiyo paleolitini o’rganish 30-yillar oxirida A. P. Okladnikov tomonidan Surxondaryo oblastining Boysun tog’idagi Teshiktosh g’orining qazib o’rganilishidan boshlandi. Xozirga qadar O’rta Osiyo paleolitini o’rganishga bag’ishlangan yuzdan oshiq, maqola, kitoblar va boshqa turdagи nashrlar mavjuddir. O’rta Osiyo paleolitini o’rganish ishlarigoshg natijalari L. P. Okladnikov, X. L. Movius, N. A. Beregovaya, V. A. Ranov, M. Kosimov, P. X. Sulaymonov, N. Toshkenboyev, G. g’. Korobkova kabilarning asarlarida o’z ifodasini topgan.

O’rta Osiyo paleolitini o’rganish Teshiktosh (1938-1939 yy.), Kayroqdum manzilgoxi (1954—1961 yy.), Xo’jagur (1954—1955y.), Koraburi (1957—1964 yy.), Xo’jakent (1958—1959 yy.), Jarquton (1961 —1963 yy.), Zirabuloq; (1971—1972 yy.), Qo’tirbuloq, (1971 — 1972 yy.), Obiraxmat (1962—1970 yy.), Samarqand (1958—1972 yy.) kabi eng muxim yodgorliklarning tadqiq. qilinishi bilan bog’liqdir. Bulardan tashqari keyinggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli bir qancha yodgorliklar topilib o’rganildiki, ular O’rta Osiyo paleolit davri tarixini mazmunan ma’lum darajada boyitdi. Bunga misol qilib Turkmaniston, Tojikiston, Qirgiziston respublikalaridan, so’ngra Teshiktosh g’arg’ona, Oxangaron vodiylaridan, keyinggi yillarda esa Qoraqalpog’istonning Ustyurt o’lkasidan topilgan materiallarni ko’rsatib o’tish mumkin. Xozirgi kungacha qilingan tadqiqotlar natijalari O’rta Osiyo paleolitini davrlashtirish imkoniyatini bergen Ko’pchilik arxeologlarning va bizning fikrimiz O’rta Osiyo paleolitini ilk paleolit, O’rta paleolit va so’nggi paleolit davrlariga bo’lib ko’rsatish mumkin⁴⁰.

Xozirgacha O’rta Osiyo va Qozog’istonda ilk paleolit davriga oid 20 dan ko’pgroq topilma yodgorlik joylari fanda ma’lum. Bu topilmalar O’rta Osiyoniig turli rayonlaridan topilgandir. Ilk paleolit yodgorliklari Turkmanistondagi Yangadja, Tojikistondagi Qizilqal’a, Kuxipiyoz, Kayroqqum, KaykitOv, Qozog’istondagi Xo’jagur, Olorcha, Qayragoch, Uchko’rgon, Polchan va Janubiy Qozog’istonning Qaratov atrofidag xisobga olingan yodgorliklarni kiritish

⁴⁰ Джуракулов М. Д. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. СамДУ. 1984, 30-бет.

mumkin. Bu topilmalarning yoshini aniqlashda, avvalo tosh qurolni taylorlashda qo'llanilgan texnikaviy uslub xarakter», arxeologik qatlamning saqlanish darjasи, qurollar ichki tashki va umumiy morfologik xususiyatlari xisobga olingandir xammasi bo'lib bu punktlardan 20 nusxa tosh qurollar topilgan bo'lib, ulardan 7 tasi ilmiy izlanishrlarda e'lon qilingan. Bu topilmalarning axamiyati katta. Zotan, ular O'rta Osiyo territoriyasi mustye, O'rta paleolit davriga qadar xam odamlar yashagan maskan ekanligini tasdiqlovchi dalildir. Bu topilm qurollar ,odatda, qayroqdan yasalgan qo'l cho'qmorlar»dan iborat bo'lib, universal tarzda qo'llanilgan. Bunday qurollarning ayrimlari qayroqtoshning sinigidan tayyorlanib, 2—4 yirik qo'pol kertish usuli bilan o'tkirlangan va tulkinsimon tir xosil qilingan. Bu ibtidoiy kishilarning dastlabki qurollari bo'lgan. Bunday qurollarni chaqmoq toshdan xam yasaganlar. Cho'kmorlar qo'lida tutish uchun ancha moslashtirilgan bo'lib odatda qulol sindirib olingen uchburchak tosh siniqlaridan xam yasalgan va kerakli narsalarni chopishga kesishga mo'ljallangan.

O'rta Ooiyoda topilgan bunday qurollarni Yevropaning ashell va ashell davrlariga to'g'ri keladi, desak xato bo'lmaydi. Ilk paleolit davriga oid topilmalar xaqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Yangadja topilmasi. Bu joy Krasnovodsk yarim orolidagi Krasnovodsk Ashxabod temir yo'lining 41-kilometridagi Yangadja va Koratangir stansiyalari O'rtasida bo'lib, bu yerdan A. P. Okladnikov mikok turt dagi ikkita qo'l cho'qmori va bir necha chaqmoqtosh siniqlari, ya'ni qo'pol parakalarni topgan edi. Topilmalar o'z davrining geologik qatlamida saqlanmagan bo'lsada, ular morfologik va toshni qayta ishslash usuli jixatidan ibtidoiy mustye davrigacha bo'lgan kishilar qurollari ekanligi isbotlangan⁴¹.

Qizilkal'a topilmasi — shu nom bilan ataladigan qishloq bilan bog'liq bo'lib, Vaxsh daryosining ung qirg'og'idagi Qurg'ontepа shaxridan 12 km masofada joylashgan. A. P. Okladnikov bu yerdan qo'pol qul chuqmori va tosh metiyaga aylangan yogochdan yasalgan qo'l chuqmori xam topgan edi. Topilmalar

⁴¹ Джуракулов М. Д. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. СамДУ. 1984, 32-бет.

Vaxsh daryosi xosil qilgan IV terassaning geologik qatlami tarkibiga oid ekanligi aniqlangan.

Onorcha topilmasi. Markaziy Tyanshan tog' tizmasi miitaqasidan oqib tushadigan Norin daryosi qirg'og'idan topilgan bo'lib, geologik jixatdan o'z joyidan qo'zg'almagan xolda yotganligi isbotlangan. A. P. Okladnikov bu joydan qayroq toshdan ishlangan chopper, ya'ni bir necha kertish usuli bilan ishlov berish tufayli enliroq tir xosil qilingan qurolni topadi. Bunday cho'qmorlar, odatda, ibtidoiy qo'l boltalarini eslatadi. Bu turdag'i qurollar ilk paleolit davrida Xindistonda va O'rta Osiyoda keng tarqalgan.

Polman topilmasi. Bu yodgorlik Qirgizistonning Polman qishlog'igiga yaqin bo'lgan Iyefayramsoy daryosining qirg'ogidan o'lkashunos arxeolog P. T. Konoplya tomonidan topilgan. Bu qurol xam, yuqorida eslatilganidek, qayroq toshdan yasalgan qo'l cho'qmoridan iboratdir.

Kayragoch topilmasi xam chopper quroli sifatida taqdim etilgan. A. P. Okladnikov uni 1954 yilda Xujabaqirgan daryosining qishlog'i yaqinidan 32 li edi.

Uchkurron topilmasi shu nom bilan ataluvchi qishloq bor bo'lib, Isfayramsoyning o'ng qirg'og'ida joylashagandir. Bu yerdan P. T. Konoplya qayroq toshdan yasalgan chopqisimon qurolni topgan edi. U uchburchak 1da bo'lib, ikkala tomoniga yirik kertish usuli bilan ishlov berilgan va qo'lida tutish uchun ancha o'ng'ay qilib yasalgan.

Xujagur topilmasi. Bu topilma Shoximardon va Isfaram daryolari oralig'ida joylashgan. Xujago'r daryosi qirg'og'idan xam shunday ashell davri qo'l chuqmori topilgan Topilma V. A. Ranovning fikricha, qayroq toshlardan ishlangan chopkich quroldan iboratdir. Kuxipiyoz topilmasi. Bu yerdan ikkita chopqining topilgan. Bu yodgorlik Kurg'ontepsha shaxridan 55 km janubi-garb tomononda joylashgan. Kayroqqum topilmalari xam qiziqarlidir. Ularga oid qilib A. P. Okladnikov tadqiq qilgan topilmarni ko'rsatsh mumkin. Bu yerdan jami 1040 ta tosh ashyoviy buyumlar topib olingan. Ularni o'rganishda Ranovning xizmatlari xam kattadir. Kayroqqumda topilma joylari aniqlangan. Ularning barchasi yuzasidan yig'ib

olingo. Topilmalar tarkibida ashell davri qurollari borligi isbotlangan. Kayqitov topilmasi Tojikistonning Kirkitov tog' etaklarida joylashgan bo'lib, u maxsus uchirilgan chakmoq tosh sinig'idan iborat. Xarakteriga ko'ra muste davrigacha bo'lган tosh quroldir. Janubiy Qozog'istonning topilmalar. Keyinggi yillarda Qozog'istonning janubiy mintaqalarida keng arxeologik qidiruv ishlari bajarildi va ilk paleolit asrida qiziqarli tadqiqotlar qilindi. Shulardan chatov tizmalari etaklaridan topilgan qurol-aslaxalar diqqatga sazovordir. Bu yerda arxeolog X. A. Alpisi dastlabki qidiruv ishlarini olib borgan edi. Natijada shell-ashell davrlariga taalluqli bir necha tosh qurollari topilib o'rganildi. Shulardan eng qiziqarlisi Buriko'zgan, Tandirqazgan va Turali manzilgoxlardir. Tutali I—V manzilgoxlarining ashell-mustye yerlariga mansub ekanligi isbotlangan. Chaqmoq toshdan yasalgan bu ibtidoiy mexnat qurollari deyarli yer yuzasidan yig'ib olingan. Ma'daniy qatlamlar bu manzilgoxlarda saqlanmagan

Yuqorida tilga olingan arxeologik va O'rta Osiyo va Janubiy Qozog'istonda mustye davriga qadar xam odamlar yashaganligidan dalolat beradi. So'nggi yillarda arxeolog E. Bijanov Qoraqalpog'istonning Ustyurt platosida soxada qiziqarli tadqiqotlar qilindi. Arxeolog M. Qasimov Toshkent Oxangaron vodiysida ish olib borib Ko'lbulloq paleolit makonini o'rgannshda yangi xulosalarga keldi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston ilk paleolit davri topilma qarorgoxlari materialarning ko'rsatishicha, b)g'orda qayroqtoshdan ishlangan qurollar madaniyati mavjud bo'lib, bunday qurollar yaqin chegaradosh mamlakatlar bo'lган Xnndiston va Xitoy territoriyalaridan topilgan qurol yasash uslubn madaniyatiga o'xshasdir. Ibtidoiy qayroqtosh qurollar madaniyatining xususiyati shundaki bu qrollar oddiy qo'l cho'qmorlaridan uzunroq yasalishi bilan farq qiladi. Bularning uch qismi enli, yalpoqroq bo'lib 2—4 yirik kertish usuli bilan o'tkirlangan va qo'lda tutish xamda ishlash uchun qulaylikka ega bo'lган. qayroqdan yasalgan qurollarning, ilmiy axborotlarga ko'ra, Xindistonning shimoli-g'arbidan Soan madaniyatida ko'proq uchratish mumkin. Bu madanpyat Yevropaning shell-ashell davriga to'g'ri keladi. Bu tarzda yasalgan qurollar bilan

qo'l cho'qmorlari O'rtasidan farq, qiluvchi tipologik xususyatlar xozirgacha saqlanish darajada aniqlanganicha yo'q. Bu arxeologlarimiz oldida turgan problemallardan biridir.

Topildiq quroq-aslahalar, asosan, chaqmoqtoshdan biriga . Bu kolleksiya tarkibida tosh paraqasidan qoplangan pichoqsimon qurollar katta bo'limni tashkil etadi. Topilmalar ichida randasimon quroq, qirg'ich, shzatngi kabi qurollar qiziqarlidir. Ayniqsa, bilan nukleyidlar ko'plab topilgan bo'lib, ulardan turli qurollar yasash uchun pichoqsimon paraqalar ajratib ishlangan.

Obirahmat manzilgoxidan qo'lga kiritilgan ma'dali topnlmalarining O'rta Osiyo, ayniqsa, Zarafshon daryosi mustye yodgorliklariga o'xshash ekanligi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Shuni qayd qilish zarurki, O'rta Osiyo territoriyadan topilib o'rganilgan paleolit makonlari tarkiida Obirahmat va Og'zikichik yodgorliklari moddiy madaniyat qoldiqlariga mo'ljallangani bilan alohida ajralib turadi. Bu makonlardan juda ko'p quroq-aslaxalar topilgan, lskni ular uncha turli-tuman emas. Bu borada O'rta Osiyo mustye davri Yevropa va Old Osiyo O'rta paelolit madaniyatidan farq qiladi. Bu esa O'rta Osiyo mustye davri madaniyati — jaxon madaniyatining mal'um bir qismi ekanlagini ko'rsatadi.

Yuqoridagilardan tashqari, Toshkent oblasti territoriyasida topilib o'rganilgan muxim topilmalardap chpa Kuqisim manz'ilgoxi va Qoraqamish topilmalarini ko'rsatib o'tish o'rinnlidir.

Keyingi yillarda, bu atrofda Toshkent shahrining 2000 yilligi munosabati bilan keng arxeologik qidiruv ishlari bajarildi va bir necha paleolit qarorgox-lari ro'yxatga olingan. Bu yerlarda tadqiqot ishlari davom ettirilmoqda.

Zarafshon O'rta Osiyoning qadimiy azim daryolaridan biri bo'lib voxaning xayot bulog'i bo'lib kelgan. Keyingi qirq yil davomida o'tkazilgan arxeologik ilmiy-tadqiqotlar tufayli voxada moddiy-madaniyat yodgorliklarinng barcha taraqqiyot bosqichlariga oid turlari mavjud ekanligi yana bir bor isbotlandi. Eng muximi shundaki, Zarafshon vodiysida odamzod ilk mustye davridan boshlab

yashaganligi va o'z davriga nisbatan yuksak madaniyat barpo etganligi ilmiy jixatdan isbotlandi.

Zarafshon vodiysining paleolit davri xaqidagi ma'lumotlar 30-yillarning oxiridan boshlab ma'lum bo'ldi. Samarqand shaxrining bolalar istiroxat bog'i territoriyasida, Chashmasiyob darschasi irmog'ining ulug' qirog'og'ida (keyinchalik Komsomol ko'li nomi bilan yuritilganligi joyda) birnchi bor 1939 yilda, ko'l inshooti qurilishi davomida, ibtidoiy kishilarning tosh qurollari, xayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan edi. 1940 yilda esa bu dargoxdan pastroqda G. V. Grigoryev tomonidan ikkita tosh sixchasn topildi. 1947 yildan boshlab arxeolog D. P. Lev raxbarligida faol ishlagan Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti arxeologiya ekspedidsiyasi voxadagi ibtidoiy tarixini o'rganishda katta yutuqlarga erishdi, ya'ni ibtidoiy jamiyat tarixshunosligining barcha taraqqiyot davrlariga mansub makon va qarorgoxlarni topib o'rganishga muvaffaq bo'ldi⁴².

Keyingi yillarda shaxar qurilishi bilan bog'liq obyektlar kam tadqiq qilinib, jumladan Registon maydoni, Siyob daryosining qirg'oqlari, Afrosiyob territoriyasida Darg'om kanali qarorgoxlarida xam paleolit davri topilmalari qo'l ga kiritildi.

Ayniqsa, bu borada Omonqo'tondagi topilmalarni o'rganish neanertal odamning qanday tabiat zamondoshi bo'lganligini bilish konPyatini berdi. Ma'lum bo'lishicha, mustye davrida mintaqada alqar, burut, kul rang ayiq kabi xayvon yashagan, turli o'simliklar mavjud bo'lgan, Gordaya alqari, qulon, surka, jayra va dasht toshbaqalari suyak qoldiqlari ko'plab topildi. O'sha zamonlarida yerlar tekislikdan iborat bo'lgan. Ibtidoiy odamning ov va terimchilik orqali tirikchilik qilishga sharoit bo'lgan.

Qo'tirbuloq makonidan ibtidoiy buqa, buxoro buqasi, qulon va boshqa xayvon qoldiqlari, Samare yuqori paleolit makonidan yovvoyi ot, buqa, tuya, kabi xayvonlarning suyaklari ko'plab topildi. Bu jonivorlar ibtidoiy odamlarning ov obyektlari bo'lgan. Xullas, makon va qarorgoxlardan topilib o'rganilgan

⁴² Джуракулов М. Д. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. СамДУ. 1984, 48-бет.

xayvonot dunyosi qoldiqlari shuni tasdiqlaydiki, Zarafshon vodiysi pleyst oqyen davrida tabbiiy va jixatdan kishi yashashi uchun juda qulay bo’lgan bu xozirgacha tabiiy va iqlim jixatdan keskin o’zga bo’lmaganligi ilmiy asosda isbotlangan.

Zarafshon voxasida hozirgi vaqtda mustye davriga oid bir necha makonlar topilib o’rganilgan. Umuman mintaqada paleolit davri yaxshi o’rganilgan. Bu teritoriyada Samarqand Davlat universiteti arxeologiya O’zbekiston g’anlar akademiyasi Arxeologiya instituti xodimlari keng ko’lamda tadqiqot ishlarini bajardi fan uchun qimmatli ma’lumotlarni qo’lga kiritdi Omonqo’ton, Takalisoy, Gurdara g’orlarining ochilishi Qo’tirbuloq, Zirabuloq makonlarining o’rgansh shular jumlasndandir. Bu yodgorliklarning ayrim xaqida qisqacha to’xtalib o’tamiz.

Omonqo’ton makoni. Bu — g’or turidagi neandertal odamlarnning makoni bo’lib, Urgut rayonining Omqo’ton qishlog’i yaqinida joylashgan. Yodgorlik 1947 D. N. Lev raxbarligida SamDU ekspedisiyasi tomonidan kashf qilindi. Makon 1947—1957 yillarda o’rganildi. Arxeologiya qazish ishlarida tarix fa ning studentlari faol qatnashdi.

Omonqo’ton g’oridan xammasi bo’lib 37 ta tosh qurol topilgan. Shulardan 2 tayen yaxshi ishlangan qo’l sixchalari 2 tasi qirg’ichsimon quollar mustye davri knigami ning did bilan toshni qayta ishlash uslubini ko’rsatadi. Quollarning ayrimlari randasimon bo’lib, xam tosh paraqalaridan yoki otsheplardan yasalgan. (nish texnikasi paraqalarning astar qamda ust toshdan bajarilgan. Natijada qurol tig’lari arrasimon, to’lqinsimon bo’lib chiqqan. Kolleksiyada randasimon paraqalardan ishlangan quollar xam mavjud bo’lib, ularning ikkala tomoniga ishlov berilgan quollar nayza tig’i sifatida va pichoq sifatida xam qo’llanilgan. Shunindek, tosh quollar, teshgichlar va keskich qurol xam topilgan.

Arxeolog N. Toshkenboyev Omonqo’ton materiali bilan qisman tanishgan xuddi, bu yodgorlikni O’rta paleolit tipining so’nggi davriga oid degan fikrni bildirdi. Omonqo’ton g’orini ko’p yillar tadqiq qilgan atoqli arxeolog D. N. Lev omonqo’tonlik ibtidoiy kishilarning qurol yasash texnikaviy uslub madaniyatini

o'zining barcha xususyatlariga ko'ra, ilk va rivojlangan mustye davriga mansub, deb hisoblaydi. Yodgorlik Teshiktosh, va Qo'tirbuloq makonlariga ancha yaqindir.

Omonqo'ton g'orining ilmiy axamiyati bu ishlardan topilgan xayvonot dunyosi qoldiqlariga xam bog'liqdir. Xozirgacha O'rta Osiyo teritoriyasidan topilgan va yaxshi o'rganilgan bironta makon va qarorgoxlardan bunda yaxshiboy material topilganicha yo'q. Yuqorida qayd etilgandek, to'plangan materiyallar O'zbekistonning janubiy qismidagi, jumladan Zarafshon voxasining pastrog'idagi iqlim va tabbiy sharoiti xaqida fan uchun zarur materiallar bor.

Takalisoy g'orining mustye davri qarorgoxi bo'lib, 1952 yilda D. N. Lev tomonidan tadtiq qilingani edi. Qarorgoh Omonqo'ton g'origa yaqin joylashgan. Bu yerdan bir necha chaqmoqtosh spiniklari, ishlov berish uchun tosh xom ashyolari, gulxan izlari, xayvon suyaklarinnng maydalaridan topilgan. G'orda neandertal odamlari vaktincha yashagan bo'lislari kerak. Topilmalar tarkibida uchburchaksimon uzun paraxa mavjud bo'lib, uning yon tomonlari kertish usulida o'tkirlangan pichoqsimon quroldir. Bu yerdan topilgan tosh paraqalar va otsheplar gardishsimon va prizmaga o'xhash nukleuslardan ajratib olingan. D. N. Lev bu texnikaviy uslubga asoslangan topib, qarorgox mustye davrining so'nggi bosqichlariga mansubdir, degan xulosaga keladi Demak, Omonqo'ton va uning atrofida neandertal odamlari mustye davrinnng boshlaridan uning oxirgi bosqichlariga qadar uzlusiz yashaganlar.

Takalisoy g'oridan topilgan tosh ashyoviy materiallarining ishlov berish texnikaviy uslublari Qo'tirbuloq makoniga o'xhash bo'lib, bu xam Teshiktosh madaniyati doirasiga kiruvchi yodgorliklardan xisoblanad Topilmalar Zarafshon tof tizmasining arxeologiyasi jixatidan istiqbolli ekanligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston g'anlar akademiyasi Arxeologiya instituti olimlari Zarafshon daryosi O'rta xavzasidagi paleolit yodgorliklari o'rganilgan qidi tait va o'rganishda muxim yutuqlarga erishdilar ulardan Qo'tirbuloq va Zirabuloq makonlari katta va muhim ahamiyatga egadir.

Qo'tirbuloq makoni ochiq joydagi qarorgoxlardan biridir. Mustye davrida kishilar faqatgina g'orlar- boshpana sifatida foydalanmasdan, balki chashma

sifatlarida, daryo qirg'oqlarida ham oddiy uy-joy qurib yashaganlar. Dastlabki yarim yerto'la va chaylasimon uy-joy qoldiqlari bizgacha saqlanib kelmagan bu manznlgo'xlarning o'rganish asosida kishining sun'ny ravishda boshpana qura bilish va dasht cho'llarda yashashga o'tganligi xaqida xamda odamlarning astasekin ov va terimchilik uchun qulay territoriyalarga tarqala borishi xaqida ilmiy xulosalar yasahsh mumkin.

Qo'tirbuloq Samarqand shaxridan 100 km g'arbda, Zirabuloq tog' tizmasining shu nom bilan yuritiladigan chashma bo'yida joylashgan. Bu qarorgox birinchi bor arxeologya institutning Yu. g'. Buryakov raxbarligidagi O'rta Zarafshon ekspedisiyasi tomonidan 1971 yil ro'yxatga olingan bo'lib, keyinchalik arxeolog I Toshkenboyev tomonidan tadqiq qilindi va natijada ko'plab tosh topilma ashyolari va xayvonot dunyosi qoliplari to'plandi. Aniqlannshnicha, makon besh madaniy g'or og'zidan iborat. Topilmalar turlari va texnologiyasi vaqtadan bir davrga, ya'ni mustye davriga mansub tipi aniqlandi. g'il, ot, buqa, qulon va buxoro shonlarining qoldiqlari topildi. Makon atrofi ovchilik va boshqa turli ozuqalarga, terimchilik qilish-qulay region bo'lган.

Qazilma ishlari mobaynida topilgan tosh qurollardan tashqari o'choq va gulxan qoldiqlari, chugiI toblangan xayvon suyak qoldiqlari mavjud. Makon jchlari qurol ishlab chiqarish uchun xom ashyoni Zarafshon daryosi qirrg'oqlaridan xamda makonga yaqin bo'lgan chmaqmoqtosh konidan olganlar. Litologiya materiali 10 lig nusxdan ko'proqni tashkil etadi. Barcha topilmalar asosan chashma atrofidan yig'ilgan. Demak, bu yerni chashma mustye davrida mavjud bo'lgan va ayiqlarga qadar odamzod qadamjoyi bo'lib kelgan. Qizig'i shundaki, ko'pgina tosh qurollar va toshni lira ishslashda xosil bo'lgan chiqindilar asosan o'choq, gulxan qoldiqlari atrofida uchraydi. Demak, ibridoiy kishilarning qurol yasash ustaxonalari gulxanga yaqin joylarda bo'lgan.

Ma'lumki, ibridoiy kishilar ayrim chaqmoqtosh bo'laklarini olovda qizdirib, suv sepish usuli bilan toplatib, zarur nukleuslar tayyorlashganlar. Keksa us-talar o'z tajribalarini yoshlarga o'rgatganlar. Shuni qayd qilib, neandertal odamlar gulxan va o'choqlar atrofida yashashgan. Ular ov o'ljalarini olovda

pishirganlar, isinishgan, hayvon terilaridan kiyim-bosh tikishgan, qurol yasashgan. Olovdan ov qilish va vaxshiy xayvonlardan saqlanishda xam foydalanganlar.

Qo'tirbuloq neandertal odamlari turli ov qurollariga ega bo'lgan. Tayoqlarning uchlarini olovda toblab tir chiqarganlar va bunday asboblar nayza sifati da xam qo'llanilgan. Bu yerdan palaxmon toshlari topilgan. Demak, mustye davrida kishilar mexanik yo'l bilan tosh irrg'itadigan oddiy qurollarni kashf qilgan ekan.

Keyingi yillarda tosh topilmalarni trayesalogik metod asosida ularning tirikchilikda qollanish funk qiyalarini aniqlash usullari sovet arxeologiya fanida muxim voqyea bo'ldi. Bu metod tufayli arxeologiya fani katta yutuqlarga erishdi. Bunday laboratoriylar Moskva va Leningraddagi SSSR g'anlar akademiyasi Arxeologiya instituti qoshida mavjuddir. Bu metod bi lan qurol aslahalarninng funksiyalarini belgilash va laboratoriylar tashkil qilishning tashabbuskori sovet arxeologi S. A. Semenov (Leningrad) bo'lgan edi Ayni vaqtda uning izdoshlari va shogirdlari bu soxada muvaffaqiyatli ish olib bormoqdalar.

Qo'tirbuloq makonida topilgan qurol-aslahalar o'zining ishlab chiqish texnikasi va qurol turlariga asosan Obiraxmat va Teshiktosh madaniyatiga o'xshashdir. Makshning barcha qatlamlaridan topilgan ashyolar bir davrga, ya'ni mustye madaniyatiga oid bo'lib, bu yer da levallua texnika uyelubini kurish mumkin. Qurollar asosan paraqalar va otsheplar zaminida yasalgan Qo'tirbuloq industriyasining boshqa makonlaridan farqli xususiyatlari mavjud. Bu asosan, qurollarni kertish usulida o'tkirlashning bir tekis emasligidadir qurollarning deyarli ko'pchiligi qo'polroq otshepla shaklida yasalgan. Bu qurollar tarkibidan universal qurollar katta o'rinni olgan.

Topilmalar tarkibida gardishsimon va yarim prizma shaklidagi nukleuslar, qyrrichlar, paraqalar xamda sheplar zaminida ishlangan turli keskich va randa simon qurollar, nayza tig'lari, sixchalar uchraydi. Hukleuslardan tosh paraqalarni uchirib olish usuli levallua texnikasini eslatadi. Umuman, bu yerda qurol shlab chiqarishda Qo'tirbuloqdagidek levalluamus texnikasi madaniyati namoyon bo'ladi.

Makondan topilgan tosh ashyoviy topilmalar Qo'tir buloq madaniyatiga juda o'xhash bo'lib, mustyening eng rivojlangan etaplariga mansubdir. Qizig'i shundaki, topilgan industriya tarkibida yuqori paleolit davriga oid qurollarning namunalari bor. Bu tosh qirg'ichlardan iboratdir. Demak, Zirabuloq makoni Qo'tirbulogdan keyinroq davrda tashkil topgan (bo'lib, bu yerda tosh qurollarni ishlab chiqarish texnikasi siningek doimiy takomillashib borishini, xullz mustye davriga nisbatan yuksakroq madaniyat darajasiga o'tish evolyutsiyasini yaqqol kuzatish mumkin.

Gurdara qarorgoxi mustye davriga oid pop turidagi yodgorlik hisoblanib, Arxeologiya institutini A. Asqarov raxbarligidagi otryadi tomonidan 1966 yilda birinchi marta kuzatilgan edi. Bu makon keyinchalik N. Toshkenboyev tomonidan tadqiq etilgan. g'op 31 rafshon tor tizmasining shimoliy yon bag'rida, Samarqand shaxridan 75 km janubi-sharqda joylashgan. Yodgorlik Urgut rayonidan topilgan mustye davri kishilari manzilgoxlardan biridir. Bu yerdan gardish shaklidagi nukleusdan uchirib olingan tosh yenniqlal va qirrich topilgan. Ular Qo'tirbulog makoning yuqori qatlamidan chiqqan tosh buyumlarga o'xhashdir. Bu yerda qazish va tadqiqot ishlarini davom ettirish ko'zda tutiladi.

Xullas, Zarafshon voxasidagi ayni kungacha o'rganilgan mustye davri yodgorklari o'zining ishlab chiqarish texnika uslubi jihatidan Obiraxmat mada yatiga yaqin o'xhashdir. Bu jarayon yuqorida aytilganidek, avvalo toshni paraqalashda levallua xususiyatlari mavjudligida namoyon bo'lган.

Shunday qilib, O'rta Osiyo mustye davrining hozirgi pkkn doirada rivojlangan madaniyat mintaqalar bo'lish mumkin. Birinchisi o'ziga xosmahalliy madanyat asosida rivoj topgan madaniyat. Bu asosda vallua texnikasining mavjudligi Ikkinciin qatlamlı Ko'lbulog madaniyatiga kiruvchi arra tish bir meyorda emas, balki tishli texnika asoslangan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida O'rta Osiyoning ko'pgina rayonlarida so'nggi paleolit davriga taalluqli yuzga yaqin topilma yodgorliklar xisobga olindi. Bu yodgorliklar faqat uchtasida planli ravishda qazish ischlari bajarildi. Ularga Samarqand makoni, Xo'jagur Shugnov makolari kiradi.

Yuqorida ko'pincha tilga olingan to'plamalarning ahamiyati katta bo'lib, ular mustye davridan so'nggi paleolit davriga o'tish jarayoning, qolaversa madanpyatpmizning uzlucksiz rivoji, taraqqiyotning isbotlovchi muhim ilmiy echmidir.

Arxeologlar A. P. Okladnikov, P. P. Bornsovskiylar kampeneton territoriyasida tadqiqot ishlari olib borish, Krasnovodsk yarim oroli rayonida bir necha so'nggi yilgi kishiilari qarorgoxlari topib o'rghanishga asos bo'ldilar. Shulardan, Yangadja I va Yangadja pomp bilan yuritilgan yodgorliklar qiziqarli misollar berilgan⁴³.

Yangadja I ning asosan ilk paleolit davriga oidligi yaqinda yuqorida to'xtalgan edik. Yangadja II yodgorligi so'nggi paleolit davriga oiddir. Bu yerda tosh quollardan tashqari, qurol ishlab chiqarish ustaxonasi borligi anqlandi. A. P. Okladnikovnmng fikricha, pishgan tosh quollar so'nggi paleolitnmng rivojlanish bosqichiga oiddir. Topilgan tosh quollar tarkibi nukleussimon qirg'ichlar, paraqalardan ishlangan cho'qmoqsimon quollar qiziqarlidir. Bu quollarning janubiy Tojikiston territoriyasidagi makonlarning pilmalariga o'xshashligi bor. Bunday qurol-aslaxalar Shimoliy Afg'onistondagi Qorakamar g'oridan qazib olingan Xo'jagur, Qizilsoy va boshqa qarorgox hamda ashell topilmalar so'nggi paleolitinig oxirgi taraqqiyot pog'nalariga oiddir.

Xo'jagur makoni Isfara daryosining o'ng qirg'og'idagi Charku qishlog'ning janubrog'ida, Qirg'iziston territoriyasida joylashgan. Yodgorlik 1954—1955 yillarda A. P. Okladnikov tomonidan tadqiq qilingan Topilmalarni uzunchoq paraqalar va otsheplar asosida tayyorlangan qirg'ich quollar tashkil qiladi. Topilmalar ichida pichoq tig'iga o'xshash quollar ham mavjud. Makonda madaniy qatlam saqlanmagan. Topilgan quollar yuqori sifatli chaqmoqtoshdan yasalgan. Maxsus qurol-uskunalardan burg'u, teshlich ka{ asboblar qiziqarlidir. Ular ko'pincha, Yevropa va O'rta Osiyo so'nggi paleolit makonlaridan topilgan «chopqi pichoqlar»ga o'xshash.

⁴³ Джуракулов М. Д. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. СамДУ. 1984, 61-бет.

Qizilqal'a II manzilgoxi ham Vaxsh daryosini o'ng qirg'og'ida, Uratepa shaqidan 12 km uzoqlikda joylashgan. Bu yerdan so'nggi paleolit qurollari bilan bir qatorda ilk paleolit davriga oid topilmalar qulga kiritilganligi haqida yuqorida gapirilgan edi. Yodgorlik A. P.Okladnikov tomonidan tadqiq qilingan. Topilgan nukleuslar, ulardan ko'chirib olingan paraqalar, yasalgan qurollar paleolitning rivojlangan oxirgi pog'onalariga oiddir.

Bo'zsuv topilmalari. Ma'lumki, Shimoli-g'arbiy Tyanshan tog' tizmalari Toshkent voqasiga kelib tutashadi. Tog' etaklarida, umuman, voxaning bir necha joylarida so'nggi paleolit topilmalari ro'yxatga, olingandir. Shulardan Bo'zsuv kanali bo'ylaridan topib olingan tosh ashyoviy buyumlar qiziqarlidir. Bu yerda dastlabki kuzatish ishlarini o'lkashunos, arxeologi xavaskori G. g'. Parfenov olib borgan edi. Bu esa keng ko'lamma qidiruv ishlari olib borishga zamin yaratadi. Natijada A. Y. Okladnikov; P. X. Sulaymonov, M. R. Qosimov va boshqalar bir necha paleo-ning makon va qarorhlarini topdilar. Bo'zsuv qirgoqlaridan qurilish ishlari tufayli yer yuzasiga chiqib qollgan, sochilib yotgan tosh ashyoviy buyumlar yig'ib olingan. Ayrim punktlar, hatto mustye davriga oid qurol-aslaxalardan nayza tig'lari, tosh paraqadan ishlangan munchoqlar, randa, qirg'ichlar va nukleuslar qiziqarlidir. Ibtidoiy odamlarning ov obyektlari bo'lgan xayvonlar suyak qoldiqlari ham o'sha davr tabiatni, iqlimi sababli masalalarni yorithishda manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, topilgan qadimgi ot suyaklari qoldiqlari I) V. Chsrdinqova tomonidan laboratoriya ishli bilan analiz qilinganda, bu xayvonlar bunday 38 ming yillar avval yashaganligi aniqlangan.

Ko'lbuluoq makoni. Biz bu haqda O'rta paleolit yodgorliklarni o'rganganimizda qisqacha to'xtalnb o'tgan bo'lardik. Ko'lbuluoq yirik ko'p qatlamlili yodgorliklardan bo'lib, bu yerda ilk paleolitdan uning so'nggi davrlarigacha bo'lgan madaniy qatlamlar ochilgan. Uning tadqiqotchisi M. R. Qosimovning fikricha, Toshkent vohasda, Ohangaron vodiysida unga teng keladigan yodgorlik hozircha topilganpcha yo'q. Bu makon keng Toshkent territoriyasini o'z ichiga olgan Ohangaron daryosining o'ng qirog'idagi g'blpk

qitlotdan 5 km shimoli-g'arbroqda joylashgan. By yerda M. R. Qosimov bir necha yildan buyon tadqiqot ishlarini olib borib, makonning pastki qatlamlari ashell-mustye, mustye va yuqori qatlamlarini so'nggi paleolitga mansub, degan xulosaga keldi.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, bu yerdan kolleksiyaning katta qismini nukleuslar tashkil etadi. Ibtidoiy odamlar bu davrga kelib tosh paraqaIarni tusmollab emas, balki dona tosh vositasi bilan bo'laklardan ajratib olishni o'rganganlar. Uning moqiyati shundaki, endi kishilar bu texnika usuli bilan epchilligi o'zlarining xoqlagan shakldagi paraqani nukleusdan ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Endi avvalgi qo'pol, uchburchaksimon otshey va paraqalar o'rnida prizma, uzun, tomonlari turli paraqalar sindirib olish texnika yo'llini o'zlashtirganlar va ulardan foyda beruvchi zaruriy quollar ishlab chiqarganlar. Masalan, tosh pichoq, teshgich quollar, randa, qirg'ichlar, nayza tig'lari kabilar. Ayniqsa, bu davrda hayvon suyaklaridan qurol ishlab chiqarish yo'lga quyilgan. Ular uy-joylari odatda keskich, ya'ni gazan quollar bilan yo'nib yasaganlar. Yuqorida qayd etilgan qurol namunalari makondan ko'plab topilgan. Tadqiqotchilarning dastlabki xulosalarida Ko'lbuluoq makoni qurol yasash uslubining Samarqand va Tojikiston so'nggi paleolit yodgorliklariga yaqinligi borligi ta'kidlangan.

Ko'lbuluoq makoning xususiyati, bu yerda ilk palsolntdap uning so'nggi davrlariga oid ashyoviy dalillar mavjudligidadir. Demak, Oqangaron vohasining qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Bu yerda mavjud bo'lgan chaqmoqtosh qatlamlari esa odamlarga qo'l kelgan. Ov qilish, terimchilik mashg'ulotlari bilan shug'ullanish uchun sharoit yaxshi bo'lgan. Bu faktorlar ibtidoiy odamlar turmushida ma'lum rol o'yanagan.

Ma'lumki, qardosh Tojikiston territoriyasida paleolit davrinig o'rGANISH ishlari L. P. Okladnikov raxbarligida 1954 yildan boshlab yo'lga qo'yilgan edi. Keyinchalik uning shogirdlaridan biri 13. L. Ranov bu soxada yirik ixtirolarning muallifi bo'lib qoldi. Bu masala asosan ilk va O'rta paleolitini o'rGANISHGA taal-luqlidir.

So'nggi paleolit masalasiga kelganda, Tojikiston territoriyasida hozircha bu davr yodgorliklari ozchilikni tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da bu soxadagi topilmalar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Xuroyigon topilmasi. Bu punkt Dushanbe sharqigacha 15 km shimalroqda joylashgan bo'lib, V. L. Ranov tomonidan o'rganilgan. Aslida bu yerdan bittagina so'nggi paleolit kprgichchasp topilgan bo'lib, u uzunchoq tosh pa-raqa asosida yasalgan.

Shugnav makoni V. A. Ranov tomonidan tadqiq qilingan. Makon ko'p qatlamlili yodgorlikdir, u shu nom bilan ataluvchi qishloq yaqinidan topilgan bo'lib, Yaxsuv daryosi xavzasidagi terrasada o'rashgan. Makondan 4000 gl yaqin tosh ashyoviy topilmalar yig'ib olingan. Madaniy qatlamlarning barchlepdap ko'pgina tosh buyumlar, hayvon suyak qoldiqlari va gulxan izlari topilgan. Topilmalarning barchasi bir davrga, ya'ni so'nggi paleolitga mansubdir. Xayvon qoldiqlari ichida ot suyagi asosiy o'rinni egallaydi. Uning namunasi Teshiktosh g'oridan va Samarqand makonidan ham topilgan.

III BOB. Eng qadimgi davrda odamzod madaniy hayoti va turmush tarzi.

Endigi asosiy maqsad va vazifamiz Markaziy Osiyo hududida yashagan eng qadimiy ajdodlarimizni 1 million yillik tarixini o'z kasblarining haqiqiy fidoiylari bo'lган arxeolog olimlarimizni qo'lga kiritgan yutuqlariga suyangan xolda imkon qadar tushunarli qilib, bayon qilishdan iborat bo'ladi. Markaziy Osiyo hududidagi eng qadimgi aj-dod-larimizni ilk tarixini yorituvchi ajoyib arxeologik yodgorlik bu Qirg'iziston Respublikasi bilan O'zbekiston Respublikasini chegarasida aniqrog'i g'arg'ona vodiysidagi Xaydarkon bilan So'x o'rtasida joylashagan Seleungur krorgoxidir. Bu ajoyib yodgorlikni topilishi garchi XX asrning ikkinchi yarmi boshlariga to'g'ri kelsada, uni o'rga-nish jarayoni poyoniga etmagani sababli, bu qarorgoxda Markaziy Osiyo xalqlarining ilk ajdodlari yashagan bo'lishlari-ga qaramay, ularni tarixiy ahamiyati, tutgan o'rni, xronologiyasi to'la ochib berilmagan edi. Shuning uchun ham Qizil imperiya davrida arxeologiya fani bo'yicha chop etilgan qo'l-lanma va darsliklarda eng qadimgi yodgorliklar qatoriga Kavkazdagи Kudaro- 1. Kudaro 3. TSona va Azix qarorgoxla-ri kiritilgani xolda, nafaqat Seleungur balki, Ko'lbulоq yodgorligi ham tilga olinmagan edi. Biz uchun eng qizig'i va ahamiyatlisi shundaki, agar yuqoridagi tilga olingan Kavkaz hududidagi yodgorliklar xronologik jixatdan ashell'ning o'rtalariga to'g'ri kelsa bizning ajdodlarimizni ilk makoni bo'lган Seleungur yodgorligi ashell'ning boshlariga to'g'ri keladi. D. A. Avdusinning Moskvada 1989 yilda chop etilgan «Arxeologiya asoslari» nomli darsligida Kavkazdagи ashell'ning o'rtalariga oid bo'lган Kudaro-1 yodgorligida ming yil davomida uzluksiz hayot davom etgani ko'rsatiladi. Vaxolanki, Angrendagi Ko'lbulоq yodgorligida bir necha yuz ming yillar davomida uzluksiz ravishda ajdodlarimizni yashaganliklari olimlarimiz tomonidan ilmiy asosda isbotlab berildi. Ajodlarimizni ilk qarorgoxi bo'lган Seleungurni arxeologiya faniga noyob yodgorlik sifatida kiritili,-shida Uzbekiston Respublikasi g'anlar Akademiyasining akademigi, tarix fanlari doktori O'tkir Islomov roli kat-tadir. O'. Islomov tomonidan Seleungurda qariyb 10 yil mobaynida olib borilgan arxeologik qazish

ishlari natijasida Markaziy Osiyo arxeologiyasiga juda katta yangiliklar kiritildi. Bularidan eng muximi, bu bizning hududimizda eng qadimgi ya`ni, ashell' davriga mansub bo`lgan ajdodla-rimizni suyak qoldiqlarini topilishi bo`ldi. Bu suyak qol-diqlari bosh, elka suyaklari va bir nechta tishlardan ibo-rat bo`lib, bular taniqli antropolog olimlar V. M. Haritonov va A. A. Zubovlar tomonidan o'rganilib, bu suyak qoldiqlari arxantroplarga tegishli ekanligi ilmiy jixat-dan isbotlab berildi. Seleungur yodgorlgida 13 ta madaniy qatlam mavjud eanligi aniqlanib, ulardan jami 1500 dan ortik mehnat qurollari vva ularni chiqindilari topildi. Seleungurda arxantroplarga tegishli suyak qoldiqlariqi to-pilishi birinchi katta yangilik bo`lsa, ikkinchi katta yangi-lik Seleungurdagi toshdan yasalgan mehnat quollarini Markaziy Osiyoda xaligacha topilmaganligi va ularni faqat o'ziga xosligi bo`ldi. Bu mehnat quollarini yasagan ajdod-larimiz bo`lmish arxantroplarga olimlarimiz tomonidan «g'ergantrop» (g'arg'onalik odam) deb nom berildi. Demak Noto ‘a’ P«§ lar bo`lmish zindjantrop, pitekantrop va sinantroplar qatoriga fergantroplar ham ko'shildi. Xronologik jixatdan fergantroplar pitekantroplardan keyin, si-nantroplardan esa oldingilari hisoblanadi⁴⁴.

Seleungurdagi uchinchi katta yangilik eng qadimgi hay-vonlarning suyak qoldiqlarini ko'plab topilishi bo`ldi. Bo'larning ko'pchiligi 1 million yil avval yashab, keyincha-lik umuman yo'qolib ketgan hayvonlar- g'or arsloii, qadi-miy ot, qulon, nasorog va boshqalarni suyak qoldiqlari ekanligini aniqlanishi bo`ldi. Chunki bu topilmalar Sele-ungur yodgorligini yoshini 1 million yil bilan belgilani-shiga xech qanday shubxa qoldirmaydi.

Shuni alohida aytish joizki, 1938 yilda A. P. Oklad-nikov tomonidan Teshiktosh g'oridan neandertal' bolani su yak qoldiqlari bilan birga must'e quollarini topilishi nafaqat bizning O'zbekistonimizda balki, butun O'rta Osiyo hududida ajdodlarimiz tarixini boshlanishi 80-100 ming yil bilan belgilangan edi.

⁴⁴ Марков К.К. и др. Четвертичный период. Т. 1. М.: изд-во МГУ. 1965. с. 59

Bunday xulosa o'z davri uchun to'g'ri edi. Sababi o'sha davrda O'rta Osiyoda must'edan avvalgi madaniyat qatlamiga ega bo'lgan biron ta yodgorlik yo'q edi. Shuning uchun ham O'rta Olsiyoning must'e odamlari Old Osiyodan kelib o'rnashib qolganlar degan fikrlar mavjud edi.

Ammo Seleungurda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasi ajdodlarimiz tarixini nafaqat 10 karra qadimiy-ligini balki, O'rta Osiyodagi must'e yodgorliklarini tarixiy ildizi shu O'rta Osiyonni o'zidan ekanligini, ya'ni chetdan keltirilmaganini kursatdi, Bunday katta ilmiy kashfiyotlar akademik Ya. G'. G'ulomov raxbarligida milliy kadrlar-dan tashkil topgan o'ziga xos mакtabning dastlabki mevala-ri bo'lib, O'rta Osiyoda inson tarixi 80- 100 ming yildan 1 million yilga etkazildi. Ma'lumki Afrikadagi Olduvey madaniyatiga oid eng qadimgi mehnat qurollarini asosan 3 ta turi mavjud edi. Bo'lardan biri ko'p qirrali yumaloq shaklga yaqin qiyofadagi tosh qurollar bo'lib, ular rus adabiyotlarida «mnogogranniki» deb ataladi. Bu qurollardan o'simlik tomirlarini va hayvon suyaklariny maydalab is-te`mol qilishda foydalanganlar. Bu qurollarni arxeolog-lar urish qurol (udarnaya orudiya) lari deb ataganlar. Ik-kinchi xil qurollari asosan uchirindi (otshep') lardan qi-lingan bo'lib, ularni xajmlari har xil bo'lgan. Ulardan asosan go'shtlarni kesib eyiShda foydalanganlar. O'chinchi xili chopper va choppinglar bo'lib, ular asosan qayroq tosh-lardan yasalgan.

Shuni aytish joizki, Seleungurda dastlabki qazish ishlarida ajdodlarimizni ilk mehnat qurollari bo'lgan nayzasimon (pik) lar, yumaloq shakl (sferaoid) ga yaqin bo'lgan mehnat qurollari uchburchaksimon (kliver) larda og'ir to'mtoq boltasimon (kolun) lar qo'l chopqi (ruchnaya rubila) lar juda kam topilgan bo'lsalar keyingai yillarda ular ko'plab topildi. Bu turdagil mehnat qurollarini Seleungurni 13 ta qatlamini barchasidan ko'plab topilishi bizning g'arg'ona vodiyimizda ashell' davrini uzoq yillar da-vomida uzluksiz ravishda rivojlanagnidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki ashell' davrida yashagan odamlarni ajdodlari er sharini qaerida yashagan bo'lishla-ridan kat`iy nazar yuqorida tilga olingan tosh qurollari bilan bir qatorda yog'och qurollardan ham foydalanganlar. Shunday bo'lishi tabiiy xolatdir. Chunki, yog'ochdan qurol

yasash birinchidan, tosh quroq yasashga nisbatan qulayrok, ikkinchidan yog'och xom-ashyo sifatida turli regionlarda ko'plab uchrab turadi. eng muximi yog'ochdan yasalagan mehnat va ov qurollari samaradorliklari jixatidan tosh quroldan kolishmaydilar. Ammo yog'ochlardan yasalgan mehnat va ov qu-rollari duch kelgan daraxt shoxlaridan ham yassalavermagan. Imkon qadar qattiq va .og'irligi boshqa daraxtlarga nisba-tan vazmin bo'lган daraxt shoxlaridan aniqrog'i silliq va kam butoqli shoxlardan yasalgan. Bu borada uzoq yillar tajriba ishlarini olib borgan arxeolog olimlarimizni fikrlariga ko'ra Evropaning ko'p joylarida dub va tissa daraxtlaridan, Kavkazda samshid va O'rta Osiyoda do'lana daraxti shoxlaridan foydalanganlar. Bu qattik daraxtlarni silliq shoxlaridan ajdodlarimiz asosan 4 xil ko'rinishdagi qurollarni yasaganlar. Bular o'zlarini bajaradigan vazi-falriga qarab, 2 ga bo'linadilar: 1. mehnat qurollari, 2. ov qurollari. Mehnat qurollariga «pal'ka-kopal'ka» ya'ni bir tomoni nayzasimon uzunligi 1 metrdan oshmaydi-gan daraxt tomirlarini va turli xasharotlarni qazib olish-ga mo'ljallangan. Ikkinchisi «kolotushka» bo'lib, bu mehnat kuroli prizma shaklidagi o'zaklardan plastinkalarni uchi-rishda va uchirindilarni ishchi qismlarni retush qilishda foydalanilgan.

Qattiq yog'ochlardan yasalgan ov qurollari esa ovchining bo'yiga qarab ikki metr xatto undan ham uzun bo'lган. Bu xildagi ov qurollari asosan ma'lum bir masofadan turib hayvonlarga zarb bilan irg'itib sanchishga mo'ljallanganli-gi uchun ularni bir uchi juda o'tkir uchli bo'lган. Bu ov qu-rollarini yo'g'onligi hozirgi zamon ketmon soplaridan yo'g'on bo'lмаган. Bularni bir uchlari avval tosh qurollar yordamida qalam uchiga o'xshatib yo'ilgan, so'ng o't alangasida engil kuydirilib, kuygan joylarini erga ishkab silliq-lashtirilgan. Natijada juda o'tkir nayza uchi xosil bo'lган. etnografik ma'lumotlarga qaraganda, bir xindu (indeets) shu xildagi ov quroli bilan o'z hayoti davomida 978 ta yaguar ya'ni arslonni yakkama- yakka olishuvda o'ldirgan. Ammo shuni Ham aytish keraki shu xildagi ov qurollari hamma yodgor-liklarda ham saqlanib qolmagan. Sababi yog'och qurollari Kanchalik kattik yog'ochlardan yasalgan bo'lmasin ular uzoq muddat saqlanish xususiyatiga ega emaslar. Lekin shunga Qaraman ba`zi joylarda

bunday yog'ochdan yasalgan ov qurollari bizgacha saqlanib qolganlari ham bor. Masalan ashell' davriga oid biz uchun juda ahamiyatli bo'lган yog'och quollar qoldig'i Ispaniya`ning Toral'ba qarorgoxidan ov nayzala-rining uchi va qazish uchun ishlatilgan palka- kopalkalarni qoldiqlari topildi. Angliya`ning Klekton qarorgoxidan esa tissadan qilingan nayzaning uchi topildi. Germaniya`ning Leringen qarorgoxidan esa tissadan yasalgan uzunligi 2 metru 15 santimetrlik nayzani filni qobirga oralig'iga sanchilgan xolatida topildiki, bu qurolni funktsiyasi o'zi bilan edi. Bu ov qurolini biz uchun eng ahamiyatlisi nayzaning uchini o'tkirlash maqsadida o'tda kuydi-rishdan foydalanganligidir⁴⁵.

Yuqoridagilardan xulosa shuki ashell' davri ajdodlarimiz o'z hayotlarida faqat tosh quollardangina foydala-nib kolmasdan yog'och quollardan ham keng foydalanganlar. Garchi bizning O'rta Osiyodagi madaniy qatlamlarga ega bo'lган Ko'lbulloq va Seleungur qarorgoxlarida yog'och quollar topilmagan bo'lsada, bu qarorgox egalarining yog'och qu-rollardan foydalanganliklariga shubhamiz yo'q.

Yuqorida bayon qilingan xulosalarga asoslanib, mutax-ssis olimlarimiz Xaydarkon chuqurligi va g'arg'onani janu-bida ilk odamlar tomonidan joylanishuvini 1 million 100 ming yil bilan belgilaydilar. Paleolit davri buyicha butun dunyoga yirik olim sifatida tanilgan frantsuz olimi g'. Bord Osiyo kontinentiga joylashgan Xindiston. Pokiston. Indoneziya. Xitoy, g'alastin hamda Afrikaning shimoliga Evropa hududini janubiga qadimiy odamlarni joylashuvini o'rta hisobda 1 million yil bilan belgilaydi. Seleungurni ko'p sonli arxeologik topimalarini o'rganish natijalariga suyanib bizning arxeolog olimlarimiz Markaziy Osiyo xududida ham aniqrog'i uni shimoliy-sharqiy qismida ilk pley-stotsen davrida, ya`ni 1 million 150 ming yil avval odamni paydo bo'lish jarayoni boshlangan degan xulosaga keladilar. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo hududini ham yuqorida Bord tomonidan ko'rsatilgan zonaga kiritadilar.

Yuqoridagilardan xulosa shuki nafaqat O'zbekiston xududida balki, butun Markaziy Osiyoda odamni paydo bo'lishi Surxondaryo viloyatini Teshiktosh

⁴⁵ Марков К.К. и др. Четвертичный период. Т. 1. М.: изд-во МГУ. 1965. с. 67

g'oridan topilgan 8 yashar neandertal' boladan boshlanmay. balki shu bola kabi nean-dertal' odamdlarning ajdodi bo'lgan Seleungur makonining arxantroplaridan ankirogi fergantroplaridan boshlanadi. Bizni eng qadimiy ajdodlarimiz xaqida qimmatli ma`lumotlar beruvchi Seleungur yodgorligidan keyingi ajoyib yodgorlik bu marxum arxeolog olim M. R. Qosimov tomonidan arxeologiya faniga kiritilgan Ko'lbulloq yodgorli-gi bo'lib, uni uzoq yillar davomida o'rganilishi natijasida bu qarorgoxda 41 ta madaniy qatlam borligi aniqlandi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki Ko'lbulloq yodgorlgini yuqoridan 1-3 qatlam yuqori paleolitga, 4-dan to 9-qatlamgacha esa must'e davriga, qolgan quyi qatlamlari esa so'nggi ashell' davriga oid deb topildi. Demak bu yodgorlikda so'nggi ashell' arxantroplaridan tortib, neandertallar va kromononlar yashaganlar ya`ni, bu makonda juda uzoq vaqt uzluksiz hayot davom etgan. Ashell' madaniyatidan so'ng must'e, undan so'ng yuqori paleolit madaniyatları o'sib chiqqan.

Bunday arxeologiya fani uchun qimmatli ma`lumotlarni beradigan yodgorliklar jahon miqyosida ham juda kamdan kam uchraydi. Shuning uchun ham Rossiya g'anlar Akademiyasi-ni xaqiqiy a'zosi zabardast arxeolog olim A.P. Derevyanko Ko'lbulloq yodgorligi va uni arxeologik ashyolari bilan tanishib chiqib: «Agar dunyo buyicha Ko'lbulloq kabi yodgorliklar 4 ta bo'lsa, shulardan biri Ko'lbuloqdir» degan edi. eng muximi shundaki Ko'lbuloqda yashagan bizni ajdodlarimiz bo'l mish arxantroplar biologik jixatdan rivojlanib xozrgi zamon shakliga kelganlar⁴⁶.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki must'e oid Teshik-tosh g'ordan so'ng Seleungur va Ko'lbulloq kabi jahon ahamiya-tigi molik bo'lgan yodgorliklarni topilishi va ularni o'rga-nilishi nafaqat bizning O'zbekistonimiz balki, butun Markaziy Osiyo arxeologiyasi srxasida juda katta tarixiy aha-miyatga ega bo'lgan voqeа bo'ldi. Bunda marxum ustozimiz Ya. G'. G'ulomovning xissalaoi bekiyosdir. Chunki yuqoridagi yod-gorliklarni tilga kirgizgan, ajdodlarimiz tarixini 80-100 ming yildan 1 million yilga etkazgan arxeolog olim-lar O'tkir Islomov va

⁴⁶ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М.: "Наука". 1981. с. 69

Mirvoxid Qosimovlar Ya. G'. G'ulomov-ning tinimsiz qilgan sayi haraktlari tufayli fan olamida kamolotga etganlar.

Markaziy Osiyo hududida quyi paleolitdan so'nggi davrni aks ettiruvchi o'rta paleolit ya`ni, must'e davri xaqida shuni aytish kerakki bu davr Teshiktosh g'oridan so'ng juda katta miqyosda o'rganildi. Markaziy Osiyo hududida topilgan must'e yodgorliklarini soni hozirgi kunda 300 taga etdi. g'aqat Toshkent voxasining o'zida 30 dan ortiq must'e yod-gorliklari aniqlandi va o'rganildi. Markaziy Osiyo hududi-dagi bu must'e yodgorliklarining eng qadimiysi va ilk bor topilgani O'zbekiston Respublikasini Surxondaryo viloyatini Boysun tumanidagi Boysun tog'ini janubiy yon bag'ridagi To'rgandaryoning Zavtalashgansoy darasida dengiz satxidan 1500metr balandda joylashgan Teshiktosh g'ori bo'lib, bu yodgorlik 1938- yili A. P. Okladnikov tomonidan ochilgan va arxeologiya faniga kiritilgan.- G'orning eni 20 metr bo'lib, uning balandligi 7-9 metrgacha etadi. Uzunligi 21 metr bo'lib, g'orning kiraverishidan to oxirigacha nisbatan ko'tarilib boradi. G'orning tepe qismida teshik bo'lgani uchun bu yodgorlik arxeologiya faniga Teshik- tosh nomi bilan kirgan. G'orda 5 ta madaniy qatlam bo'lib, ular bir-birlaridan uncha qalkn bo'limgan sarik loyqa qatlamlar bilan ya`ni, tabiiy qatlamlar bilan ajralib turadi. Madaniy qatlamni ba`zi joylarida yuza qismini tepadan tomgan suv tomchilari yuvib undagi tosh va suyak qoldiqlari ko'rinish qolgan. G'ordagi 5 ta «madaniy qatlamni umumiy qalinligi 1,5metr bo'lib, uni umumiy satxi 300 m 2. Shundan 100m2 tida arxeologik ashyolar saklangan. Bu yodgorlikning harak-terli xususiyatlaridan biri madaniy qatlamlarning har bi-ri o'zida bittadan, ayrimlari esa ikkitadan gulxan qoldiq-larini yaxshi saqlab qolganligidir. Bu gulxan qatlami orasida va uni atroflarida juda ko'plab tog' echkisi. bug'u. sirtlod. yovvoyi ot. ayik. koplon. kuyon va xar hil qushlarnning suyak qoldiqlari topilgan. g'aqat tosh artefakt (inson mehnating natijasida vujudga kelgan buyum) larning soni 3000ga yaqin bo'lib, bulardan 339 tasi must'e davriga xos mehnat quollaridir, Bu tosh quollar qirqish, tarash-lash, qirish kabi ishlarni bajarib, ajdodlarimiz xo'jali-gida muxim rol' o'ynagan. Bular orasida diametri 10- 15sm bo'lgan rapidasimon o'zak (nukleuis) lar ham bor.

Shuni ay-tish kerakki must'e davrini o'ziga xos texnikasi bo'lib, bu texnika taraqqiy etganligi va mehnat quollarini shaklla-rini tubdan o'zgarganligi bilan o'zidan oldingi davrlardagi Olduvey, ashell' kabi madaniyatlarga mansub bo'lган topil-malardan keskin farq qiladi. Agar ashell' davri uchun aso-san bodomsimon harakterli bo'lsa, must'e uchun rapidasi-mon o'zaklardan yumaloq yoki oval shakliga ega bo'lган va o'rtacha vazni 0,5kg dan kam bo'lмаган qayroq toshlar (ot-boynik) lar yordamida urib uchirib olingen uchirindi (ot-shep') lardan yasalgan mehnat quollari harakterlidir. Bu uchrindilar ko'pincha uchburchak shakliga yaqin bo'ladi. Bu uch-burchak shakliga ega bo'lган uchirindi (otshep') larni otboy-nik (qayroq tosh) lar yordamida rapi-dasimon o'zak (nukle-us) lardan zarb bilan urib uchirib olinishi arxeologiya fa-nida, mehnat quollariga berilgan birinchi ishlov (per-vichnaya otrabotka) deyiladi. Uchirin-dilar o'z o'zaklaridan uchirib olingenlaridan so'ng ulardan uchlari o'tkir bo'lган nayzasimon, ovda kullaniladigan ov quollari yasalib, ular asosan uzunligi 1,5-2 m keladigan silliq yog'och-kaltaklar uchiga o'rnatilgan. Ularni ana shu kaltaklarni uchiga o'rnatilishida daraxt po'stlaridan ip o'rnida foydalakganlar. Bu bilan ajdodlarimiz ilk bor ma'lum bir masofadan turib, ov kilinadigan hayvonlarga o'z nayzalarini sanchish imkonи-ga ega bo'lганlar.

Agar biz must'e davrida ajdodlarimizni guruh-guruh bo'lib ov qilishlarni hisobga olsak bu nayza quroq-larini naqadar katta ahamiyatga ega bo'lганini tushinib olamiz. Chunki 15-20 odamni baravariga ov hayvoniga 10-15 m masofadan turib o'z nyzalarini zerb bilan mo'ljalga otishlari yaxshi natija bergenligiga xech qanday shubxa qoldirmaydi. Agar otilgan nayzalarni 20 tadan yarmi mo'ljal-langan nishonga tekkani taqdirida ham xar qanday ov hay-vonini xalok qilishi mumkin. Demak must'e davriga kelib, olduvey va ashell' davrlariga nisbatan tosh quollarini yashash texnikasi rivojlanganligi tufayli ov qilish mada-niyati ham yuksak darajaga ko'tarilgan. Must'e davrida nay-za (ostrokonechnik) quollaridan tashqari, yuqorida aytil-gan uchburchaksimon qirg'ich (skreblo), randa (skobel') kabi mehnat quollari ham yasalgan. Shuni aytish joizki nafaqat must'e davrining Teshiktosh g'ori odamlariga balki barcha must'e yodgorliklari

uchun xos bo'lgan qirg'ich (skreb-lo) lar va randa (skobel') lar uchburchaksimon uchirindilar-dan yasalgan bo'lib, ular bir-birlariga juda o'xshaydilar. Ammo ularni funktsiyalari ya`ni vazifalari bir-birlaridan butunlay boshqacha bo'lgan. Qir-g'ich (skreblo) lar asosan hayvon terilarini ichki qismini yog'laridan tozalash va ana shu ichki satxiga ishlov berish vazifalarini bajarganlar. Randa (skobel') lar esa asosan yog'ochlardan yasaladigan mehnat quollariga ishlov berishda foydalanilgan. Garchi bu ikki xil vazifani bajaruvchi mehnat quollari ko'rini shi jixatidan xatto xajmlari jixatidan ham bir xil bo'lsalarda, mutaxssis arxeolog olimlar ularni juda oson-lik bilan bir-birlaridan ajrata oladilar. Agar qirg'ichlar bilan yog'ochga nibatan yumshoq bo'lgan terilarga uzoq vaqt mobaynida ishlov berilishi natijasida ularni ishchi qism-larida, ya`ni ishlatilgan o'tkir qirralarda silliqlik pay-do bo'lgan bo'lsa, randalarda qattiq yog'ochlarga ishlov berish jarayonida ularni ma'lum darajada ishlov berila yotgan yog'ochga bosib ishqalashlari natijasida ana shu randalarni ishchi qismlarida arra tishlariga o'xshash tishchalar paydo bo'ladi. Ana shu belgilar orqali bu mehnat quollari osonlik bilan bir-birlaridan ajratib olinadi. Bu kabi mehnat quollarini yasashda otboyniklarga nisbatan bir necha baro-bar kichik bo'lgan, tuxum xajmi va shakliga ega bo'lgan qay-roq toshlalrdan, ayrim xollarda qattiq yog'och (samshid, do'lana) tayoqchalaridan ham foydalanganlar. Uchirindila^r chap ko'lda ushlanib, uning qirralariga o'ng qo'ldagi otboy-nikchalar yoki tayoqchalar bilan bir necha takroriy urishlar orqali ishlov berilgan ya`ni uchirindini qirralari yupqa-lashtirilib, o'tkir kesuvchi, qiruvchi mehnat quollariga aylantirilgan. Bu xildagi ishlov berishni arxeologiya fa-nida uchirindilarga retush berish deyiladi. Retush berish ko'pincha uchirindidan ma'lum maqsada foydalanganligi natijasida uni o'tkir qirralari to'mtoqlashib ishga yaramay qolgan xolatlarda beriladi. Demak retush deganimizda ishga yaroqsiz bo'lib qolgan uchirindilarni qirralarini nisbatan yupqalashtirilib qaytadan ishga yaroqli qilish tushuniladi. Aga shunday usulda uchirindilarga ishlov berishni arxeolog-lar mehnat quollariga ikkinchi ishlov (vtorichnaya otra-botka) berish

deydilar. Shuni alohida aytish joizki Markaziy Osiyo hududida must'e davrini yorqin ravishda ifoda-lab beruvchi mehnat va ov qurollari hozircha Teshiktosh g'oridan boshqa xech qaysi yodgorlikda bunchalik ko'p topilmagan⁴⁷.

Teshiktoshdan topilgan topilmalarning qadimgi ajdodlarimiz tarixini yoritishda eng katta ahamiyatga ega bo'lgani bu Teshitosh odamining suyak qoldig'idir. Bular aso-san yosh bolani kalla.. elka va o'ng son, yo'g'on boldir suyakla-ri hamda umurtqa pog'onasining ba'zi bo'laklari bilan qo-birga suyaklarini siniqlaridan iborat bo'lgan. Bu yodgorlik uchun harakterlisi shuki bu suyaklar neandertal' odamining 8-9 yashar bolasiga tegishli bo'lib, u maxsus kavlangan chuq-urchaga ko'milib uning atrofiga bir necha tog' echkisi shoxlarini suqib qo'yilgan. Mutaxassis olimlarning tasdiqlash-laricha bu qabr O'rta Osiyo hududi uchun birinchi vokea xi-soblansa. echki shoxlarini sanchib ko'yilishi jaxon arxeologiyasi uchun xam birinchi vokeadir.

YUqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki bizning O'zbekistonimiz hududida ko'mish marosimi must'e davrida boshlangan ekan. ilk diniy e'tiqodlarni vujudga kelishi ham ana shu davr bilan belgilanadi. Teshiktosh g'oridan topilgan odam suyagi antropologlarda juda katta qiziqish uyg'otdi. Ularni aniqlashlaricha bola kalla suyagining xajmi 1490 sm³ bo'lib, uning qopqog'i pitekan-trop va sinantoplarnikidan ancha balandroq bo'lgan. Bu su-yak qoldiqlarini o'rghanish 1970 yillarda ham davom etdi. Taniqli antropolog olim, akademik V. P. Alekseevni ilmiy xulosalariga ko'ra Teshiktoshdan topilgan odam suyagi ayol zotiga tegishli bo'lib, u inson evolyutsiyasini neandertal' fazasiga mansub va u Evropa yoki Osiyo guruhiga kiradi. Teshiktosh odami turidagi odam suyagining qoldiqlari bi-rinchi marotaba 1856- yilda Germaniya`ning Dyussel'dorfida topilib, topilgan joyni nomi bilan Neandertalets deb nomlangan edi. 1907- yilda esa shu turdag'i odam suyaklari-ning qoldiqlari, yana Germaniya`ning Geydel'berg hududida topilgan. 1924-yilda esa Kiyik-Koba

⁴⁷ Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. М.: "Наука". 1981.

g'oridan erkak kishi bilan yosh bolani neandertal' turiga oid suyak qoldiqlari topilgan edi. Ammo 1938-yilga kelib bizning O'zbekistoni-miz hududida A. P. Okladnikov tomonidan neandertal' oda-mini qarorgoxini topilishi va uni mukammal o'r ganilishi jahon jamoatchiligi orasida juda katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Chunki o'sha yillari Ulug' Vatan urushi arafasida fashistlar Germaniyasda nemislar toza qondan paydo bo'lган irklardir. Er yuzining barcha boshqa xalqlari nean-dertal' avlodlaridir. Nemis millati uchun neandertallarni aloqasi yo'q. Nemislarni kelib chiqish joylari Urta Osiyo bo'lib, u hududda neandertallar yashamagan, shuning uchun ham O'rta Osiyoda neandertallarga xos bo'lган qarorgoxlar yo'q degan uydirma nuqtai nazarlar ataylab yuzaga keltirilgan edi. Bunday uydirmalardan iborat bo'lган, nuqtai nazarlar-ni mualliflari A. Gitler taraf dorlari bo'lib, ular bunday fikrlarni taratishlariga asos qilib, O'rta Osiyoda neander-tallar qarorgoxini yo'qligini pesh qilgan edilar. Aslida, O'rta Osiyo hududida neandertallar qarorgoxlarini yo'qligiga sabab, 1938-yilga qadar O'rta Osiyoda tosh asri bo'yicha qidiruv tatqiqot ishlarini olib borilmagani edi. Shuning uchun ham O'zbekistonda Teshiktosh g'orini topilishi va uni o'r ganilishi natijalari nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarini qadimiy ajdodlari tarixini yoritishlarida balki yuqorida kabi uydirmalarni fosh qilishda ham katta tarixiy ahami-yatga ega bo'ldi.

Shuni aytish kerakki must'e davriga mansub bo'lган yodgorliklar O'rta Osiyoda, ayniqsa bizning O'zbeki-stonimizda, asrimizni birinchi yarmida uncha ko'p topilmagan bo'lsada, uni ikkinchi yarmida yuqorida ko'rsatganimizdek ju-da ko'plab topildi. Ammo must'ega oid odam suyagini qod-lidiqlari nafaqat O'zbekistonda balki, O'rta Osiyoda ham Teshiktoshdan boshqa joyda topilmadi. Lekin must'e davriga mansub mehnat quollarini ko'plab topilishi bu davrda nafaqat O'zbekistonda balki butun Markaziy Osiyoda nean-dertal' odamlarni keng tarqalganidan dalolat beradi. Te-shiktoshdagi toshdan yasalgan mehnat quollarining ko'p ji-xatlari Zirabuloq, Qo'tirbuloq, Omonqo'ton, Ko'lbuluoq, Obiraxmat kabi must'ega mansub bo'lган yodgorlilarning mehnat quollariga o'xshab ketadi. Ammo bular orasida Te-shiktosh yodgorligi nisbatan eng yoshi

ulug'i hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi must'e davri xaqida mukammalrok tu-shuncha xosil qilish maqsadida, Teshiktoshdan tashqari juda ko'plab topilgan must'e yodgorliklaridan ayrimlari xaqida qisqacha to'xtab o'tamiz: Amir Temur g'oridagi qarorgox ham must'e davriga mansub bo'lib, u Teshiktosh g'oridan uncha uzoq bo'lмаган erda joylashgan. Bu qarorgoxda 3 ta madaniy qatlam aniqlanib, uning yuqoridan 1 va 2-qatlamlari yuqori paleolitga, oxirgi 3-esa must'ega mansubligi aniqlangan. Bu must'e qatlamidan gulxan qoldig'i, pista ko'mir, dag'al kiyofadagi qirg'ich, rapidasimon o'zak (nukleus), har xil xajmdagi uchirindilarning siniqlari topilgan. Bu g'or to-pilmalarining harkterli tomoni shundaki, uni quyi qatla-midagi arxeologik topilmalar Teshiktosh g'orini yuqori qat-lamidagi topilmalarda o'z o'xshashligi (onologiyasi) ni topa-di.

Tosh quollardan tashqari Amir Temur g'oridan yovvoyi otlarni, ayiq va sirtlon (yoldor bo'ri) larni hamda quyon, qushlarni suyak qoldiqlari ham topilgan. Teshiktosh va amir Temur g'orlaridan tashqari must'e davriga mansub bo'lган tosh quollari Surxondaryo voxasining ko'п joylarida er yuzasidan must'e davriga oid (tabiatni ta'sir kuchi nati-jasida) o'z madaniy qatlamlaridan turli joylarga jilib qolgan tosh quollari topilgan. Demak must'e odamlari faqat Boyso'ngagina xos bo'lmay, ular butun Surxon voxasida ham yashaganlar. O'zbekistonimizdagи Teshiktosh va Amir Temur yodgorliklari bilan bir qatorda must'e lavrini ajoyib yodgorliklardan yana biri Samarqand viloyatini Qo'tirbulоq yodgorligi bo'lib, bu erda qazish ishlarini asosan arxeolog olim N. X. Toshkenboev tomonidan olib borilgan. O'ni tosh industriyasi esa N. X. Toshkenboev bilan R. X. Sulaymonov tomonidan olib borilgan. Bu yodgorlik qalin madaniy qatlamga ega bo'lib, bu madaniy qatlam mutaxas-sislар tomonidan 5 ta gorizontga ajratilgan. Tosh quollarini soni 10 mingga yaqin. mehnat quollarini yasashda Qo'tirbulоq sohiblari asosan chaqmoqtoshga yaqin bo'lган qay-roqtoshlardan foydalanganlar. Qo'tirbulоqning texnikasi must'e davrinikaga o'xshash bo'lib, gorizontlardan topilgan nukleuslarning deyarli yarmi rapidasimon shaklda. Harak-terlisi shundaki bu nukleuslar orasida levallua turidagi nukleuslar ham mavjud. Mehnat quollarini ichida retushlan-gan uchirindilar va plastinkalar, ostrakonechniklar, qirg'-ichlar

etakchi o'rirlarni egallaydilar. Olimlarimizni fikrlaricha Qo'tirbuloq tosh industriyasini qiyofasi Teshik-tosh va Obiraxmatnikiga ancha yaqin. Ammo Qo'tirbuloqda le-vallua texnikasini nisbatan kam taraqqiy etganligi va qayroqtoshlardan yasalgan mehnat qurollarini ko'pligi ji-xatidan Qora-bura yodgorligini tosh industriyasiga ham o'xshashligi borilagini ko'rsatadi. Shu bilan birga aytarli darajada farqi ham bor. Bu tishli retushni keng tarqalgan-ligi bo'lib, boshqa must'e yodgorliklariga nisbatan mehnat qurollariga ikkinchi ishlov berilganligining ko'pligidir.

Qo'tirbuloq yodgorligidan tashqari Zarafshon daryosining o'rta va quyi okimining atroflarida yana must'e yodgorlik-laridan Zirabuloq, Omonqo'ton, Takaliksoy, Gurdara va Uch-tut ustaxonalari mavjud. Bular orasida Zirabuloq Qo'tir-buloqka juda yaqin. Zirabuloq yodgorligini 20m² maydonida madaniy qatlamdan arxeologik ashylar qazib olingan. Bun-dan tashqari uni atrofidan er yuzidan must'ega oid har xil mehnat qurbllari topib to'plangan. O'larning jami 500 dan ortiq bo'lib, arxeologlarni xulosalariga ko'ra xronologik jixatdan must'eni oxiriga to'g'ri keladi. Omonqo'tonda qa-zish ishlarini olib borgan D. N. Lev 220 ga yaqin artefakt-larni (inson qo'li bilan yasalgan mehnat qurollari va ana shu jarayonda vujudga kelgan chiqindilarni arxeologlar ar-tefaktlar deydilar) to'plashga muvaffaq bo'lgan. Uning fikriga ko'ra bu artefaktlar Qo'tirbuloq qurollariga yaqin bo'lib, ular orasida yuqori paleolitga mansublari ham uch-raydi⁴⁸.

g'arg'ona vodiysi va unga tutash tog'liq hududlar ajdodlarimizni yashashlari uchun har jixatdan qulay bo'lgani uchun ham uning tog'liq hududlarida tosh asri odamlarini izlari ko'plab uchraydi. Farg'ona yaqinidagi must'e davri qarorgoxlari Quvasoyning qadimgi soxilidagi adirdan topilib, u g'arg'ona shaxridan 10 km shimolda joylashgan. Quvasoy bo'ylaridan juda ko'plab must'ega oid mehnat qurollari va qarorgoxlar topilgan. Bularidan tashqari Oloy tizmasining shimoliy yonbag'irlarida, ayniqsa Qatrontog'ning janubiy yonbag'irlaridan must'e

⁴⁸ Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974, с. 56.

davri qarorgoxlarini izlari ko'plab topilgan. Shuni alohida aytish joizki tosh asrining har qaysi davrida mehnat quollarini sifatli bo'lishidan, uni taraqqiy etishida, xom-ashyoni roli juda katta ahamiyatga ega bo'lган. Aniqrog'i toshdan yasalayotgan mehnat qurolini sifat darajasi uni qanday xom-ashyodan tayyorlanishiga bog'liq bo'lган. g'arg'ona vodiysining ko'p qa-rorgoxlarida mehnat quollarini yasashda, g'arg'ona shaxri-dan 40 km janubda, Oloy tizmasining shimioliy qiyaligida-gi Dang'arak dara soyda joylashagan Qopchig'ay ustaxonasi muxim ahamiyatga ega bo'lган. Bu yodgorlik 1956 yili topi-lib, 1958-59 yillari Uzg'A qoshidagi tarix va arxeologiya institutini paleolit otryadi tomonidan o'r ganilgan. Bu er-dan ko'plab o'zak (nukleus) lar va har xil mehnat quollari topilgani uchun arxeologiya faniga Qopchig'ay ustaxonasi, ya`ni mehnat quollari yasaladigan joy nomi bilan kirib qolgan. Aslida bizningcha bu yodgorlik ustaxona emas balki, mehnat quollari yasash uchun vodiyning turli tomonlaridan must'e odamlarini kelib, chaqmoqtoshlarni olib ketadigan xom-ashyo bazasi bo'lган desak to'g'ri bo'ladi. Chunki bu erga kelgan ibtidoiy odamlarning asosiy maqsadlari bu joyga kelib quroq yasash emas balki, o'zlar uchun xom-ashyo olib ketish bo'lган. Qopchig'ay ustaxonasidan ko'plab o'zaklar va ularni chiqindilarini topilish masalasiga kelsak, bu erga kelgan har bir ibtidoiy odam xom-ashyoni sifatini aniqlash maqsadida yoki imkoniyatdan foydalanish maqsadida o'zi uchun u yoki bu xildagi mehnat quollarini yasab olgan bo'lishi mumkin. Keyingi izlanishlar shuni ko'rsatdiki to'la ma'nodagi mehnat quollarini yasaladigan ustaxonalar tosh asrining ancha keyingi davriga aniqrog'i neolit davrga to'g'ri keladi. Neolit davriga kelib xom-ashyoni o'z ona bag'ridan olish. ularni sifatini aniqlash, ulardan mehnat quollarini yasash kabi ishlar bilan maxsus kishilar shug'ullanganlar va o'z xo'jaliklarini asosini shunga mos-lashtirgnalar. Bu xaqda neolit davri xaqida so'z yuritgani-mizda batafsilroq tuxtaymiz. Qopchig'ay ustaxonasiga kel-sak, bu erda bunday guruhlar xili vujudga kelmagan edi. Shuning uchun ham arxeologiya faniga Qopchig'ay ustaxonasi nomi bilan kirib qolgan bu yodgorlikni Qopchig'ay ustaxona-si emas, balki Qopchig'ay xom-ashyo bazasi desak to'g'ri bo'la-di. Oloy shimoliy yonbag'rining Dangi darasining barcha qo-

yalari qora chaqmoqtoshdan tashkil topgan bo'lib, ular mehnat quollarini yasash uchun ham mo'l, ham qulay bo'lgan. eng mu-ximi ana shu Qopchig'ay xom-ashyo zaxirasi yaqinidan arxeolo-giya faniga Qopchig'ay-1 g'or-makoni nomi bilan kirgan must'e davriga mansub yodgorlikni topilishi bo'ldi. Bu g'or Xalqn-mayin soyiga quyiladigan irmoqlardan birining chap soxi-lida joylashgan bo'lib, u erdan must'ega oid har xil mehnat quollari va turli xil hayvonlarning ilik suyakla-ri topilgan. Umuman olganda g'arg'ona vodiysining juda ko'p joylaridan must'ega oid ko'plab tosh quollar topil-gan. Ammo bo'larning ko'pchiligi er yuzasidan terilgan (pod'emniy material) moddiy ashyolar hisoblanadi. Lekin shunga qaramay g'arg'ona vodiysida must'e odamlarini ancha keng tarqalganidan dalolat beradi.

Milliy arxeolog olimlarimizni ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatdiki must'e davri nafaqatg'arg'ona vodiysida balki sevimili vatanimizni barcha hududlarida, shuningdek butun Markaziy Osiyoda keng miqyosda mavjud bo'lgan va bu-larni ko'pchiligi olimlarimiz tomonidan etarli darajada o'r ganilgan. Ammo bu must'e davri yodgorliklarini barchasi-ni yoritish uchun garchi bizda to'la ma'lumotlar bo'lsada, ush-bu kichik xajmdagi qo'llanmada bayon qilish imkoniga ega emasmiz. g'aqat Toshkent voxasini o'zidan 30 dan ortiq must'e yodgorliklari topildi va ular olimlarimiz tomoni-dan 3 guruhga bo'lib o'r ganildi: 1. G'or: 2. Ochik: 3. Madaniy katlamlarni tabiat ta'siri natijasida buzilganlarga. G'orlardagi must'e yodgorliklarini hammasi asosan Chir-chiq daryosi xavzasi atrofida joylashgan. Ochiqlikdagi ma-daniy qatlamlari saqlangan qarorgoxlar esa Oxangaron da-ryosining xavzasi atrofiga joylashgan. Ularni orasida eng yirigi ko'p qatlamlili Ko'lbulloq yodgorligi bo'lib, paleolitni Har qaysi bosqichiga oid ko'p minglab mehnat quollarini to-pilgan. g'aqat must'e davriga mansub tosh quollarini soni 12 mingg'a etadi. Mutaxassis olimlarimizni xulosalariga ko'ra O'rta Osiyo hududi uchun must'e davrini yoritishda Tosh-kent voxasi katta rol' o'ynaydi va bunda Ko'lbulloq va Obiraxmat must'e sirlarini keng ko'lamda ochishda kalit vazifasini bajaradi⁴⁹.

⁴⁹ Лазуков Г.И. Взаимоотношение географической среды и палеолитического человека. В кн.: Первобытный человек, его материальная культура и природная среда в плейстоцене и голоцене. –М., 1974, 67.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish kerakki, must'e davri yodgorliklari bizning Markaziy Osiyo hududi-da keng tarqalgan bo'lib, ular arxeologlarimiz tomonidan etarli darajada o'rganilgan. Ayniqsa bizning O'zbekistonimiz hududida boshqa qo'shni respublikalarga nisbatan ken-groq kulamda o'rganilgan. Shuning uchun ham must'e davri-ning o'ziga xos xususiyatlari xaqida ancha ma'lumotlarga egamiz. Shell' va ashell' davrini davomi bo'lgan must'e davrini asosiy xususiyatlaridan biri avvalo must'e odami-ning tashqi ko'rinishidagi o'zgarish bo'lib, u ashell' odamiga nisbatan ancha takomillashgani yaqqol ko'zga tashlanadi. En-di arxantroplar o'rniga poleantroplar vujudga keladi. Po-leantroplarni ilgari neandertal' odami deyilar edi. Po-leantroplarni jag'lari xali ham dag'al bo'lib, tishlari yi-rik bo'lган. Ammo o'zlari ancha epchil va harakatchan bo'lgan-lar. Juda ko'p yillar davomida ibtidoiy odamlarni mehnat qurollari ustida ilmiy tajribalar o'tkazgan arxeolog olim S. A. Semenovni xulosalariga ko'ra must'e odami hozirgi odamga nisbatan jismoniy jixatdan 4-5 barobar kuchli bo'lgan. Must'e davri odamini mehnat qurollarini yasashda ham o'ziga xos texnikasi bo'lgan. Endi u shell' va ashell' davridagi bodomsimon qo'l chopqisini yasashdan ostrakonech-nik (uchi o'tkir uchburchaksimon nayza), skreblo (qirg'ich), skobel' (randa) larni yasashga o'tgan. Bu uchirindilar rapi-dasimon o'zak (diskovidnqy nukleus) lardan oval shakliga yaqin qayroq tosh (otboynik) lar yordamida olingan.

Must'e davri makonlarining ayrimlaridan yuqoridagi texnika bilan bir qatorda arxeologiya faniga «levalua» nomi bilan kirgan texnika ham qo'llanilgan. Bu texnika-ga ko'ra, avvalo yapaloq oval, shakliga ega bo'lgan qayroq tosh topilib, uni chekkalaridan otboynik yordamida bir necha uchirindilar uchirib, so'ng uni bir tomonida urilish maydo-ni yasalgan. Natijada bu qayroq toshni bir tarafida toshbaka qobig'iga o'xshash shakl paydo bo'lgan. Shundan so'ng uri-lish maydoniga otboynik bilan qattiq urilgan va mo'ljal-langan uchirindini uchirib olingan. Demak, «levalua» tex-nikasi deganda yapaloq shakldagi qayroq yoki chaqmoq toshlar-da

keraqli shaklni tayyorlab, so'ng uchirib olingan aylanasi-ga o'tkir qirra xosil qilingan uchirindilarni tushuniladi.

Arxeologlarni izlanishiga ko'ra, must'e davri quollarining turlarini soni 60 taga etgan.

Ostrakonechniklar aslida bodomsimon qo'l chopqilarini bir necha yuz ming yillar davomida takomillashgan shaklla-ridir. Must'e davrida 1 va 2-ishlov berish usullari vujud-ga keladi. Birinchi ishlov deganda nukleuslardan uchirin-dilarni uchirib olish tushunilsa, ikkinchi ishlov deganda ana shu uchirindilar o'tmaslashganda ularni retush qilish tushuni-ladi. Arxeologlar tomonidan o'tkazilgan tajriba-lar shuni ko'rsatdiki must'e davri ostrakonechniklariniyoki skobel' va skreblolarini yasash uchun hammasi bo'lib 5-10 min vaqt sarflangan xolos. Ko'pchilik must'e qurollari xajm jixatidan uncha katta emaslar. Ammo ular ko'p vazi-falarni: kesish, qirish, randalash, teshish, yovoch va teri-larga ishlov berish kabilarni bajarganlar. Suyaklardan mehnat quollarini yasash va ularga ishlov berish oldingi davr kabi uncha taraqqiy etmagan. Lekin, har qalay suyaklardan bigizlar qilina boshlagan. Yog'ochlardan foydalanish davom etgan. Agar ashell' davrida dub, samshid, tissa, do'la-na kabi daraxtdlarni shoxlaridan olov yordamida nayzalar yasalgan bo'lsa, must'eda bu tayoklarni uchiga ostrakonechnik-lar o'rnatilib, ularni ma'lum masofadan turib hayvonlarga sanchishda ko'proq foydalanganlar. Must'e qarorgoxlari g'or-larda va ochiqliklarda ham bo'lган. Bularning ayrimlari uzoq muddatli qarorgoxlar bo'lsa, boshqalari ovchilarni vaqtli lageri bo'lган. Bular dan ayrimlari qoyatoshlarning tanasida bo'lsa, boshqalari ochiqlikda sun'iy ravishda o'zla-ri uchun moslashtirilgan. Masalan: Kiyik-Kobada must'e odamlarining qarorgoxlari tosh devorlar bilan o'ralgan bo'lsa, Molodovo-1 da ikkita kishda yashash uchun moslashti-rilgan xona bo'lib, bu xonalarga yopishtirib yana ikkita xo-na qurilgan. Bu xonalarni qurishda yirik hayvonlarning suyaklari va terilaridan foydalanilgan. Must'e yodgorlik-larining barchasida avvalgilaridek xo'jaliklarini asosini ov tashkil qilgan. Must'e odamlari mamontlarni kiruvchilari bo'lган. Mamontlar juda qo'pol va baxaybat bo'lib, ta-nalari jun bilan qoplanib sovuqqa moslashganlar.

Ular ko'p bo'lмаган пода xолида о'tлаганлар. Булардан ташқари must'e одамлари yovvoyi ot va eshak kabilarni ham ov qil-ganlar. Ov bilan bir qatorda termachilik ishlari ham davom etgan. Must'e davrini harakterli xususiyatlaridan biri odamlarni ko'mish marosimini bilishlari bo'lган. Demak, must'eda ilk diniy e'tikodlar vujudga kelgan. Kiyik-Koba qo'rg'onida murda maxsus kovlanagan chuqurga yonboshlatilgan va oyoklari buklangan xolatda ko'milgan. Bunday xolatda ko'mish marosimlari uzoq davom etib, xatto bronza asrida ham qo'llanilgan. O'zbekistonda Teshiktosh g'oridan topilgan yosh bolani suyak qoldiqlari birinchi bo'lib, must'e одамларининг урф-одатларига. aniqrog'i одамлarda ehtikod paydo bo'lганидан dalolat beradi. Chunki bolani suyak qoldiqlari tog echkisini shoxlari bilan uralgan xolatda topilgan. eronning Shanidar nomli must'e yodgorligidagi kabrdan_, qo'yilgan gullarning qoldiqlari topildi. Mutaxassislarini xulosalariga ko'ra bu bir qo'li yo'q odam tirikligida uzoq vaqt ko'lsiz yashagan. Bundan shunday xulosaga kelinadiki, must'e davrda ham ajdodlarimizda odamiylik mavjud bo'lган. Aks xolda bir qo'li yo'q odamni bir o'zi kollektivni yordamisiz uzoq vaqt yashay olmas edi. g'rantsiyada esa tosh yashiklarni birida odam suyagini qoldiqlari, ikkinchisida esa, ayiqni suyaklari topilgan. Bundan o'sha davr ajdodla-rimizda odam ko'milgandan so'ng'tiriladi va ayiq go'shtini iste'mol qiladi degan tushuncha bo'lган degan xulosa chiqqa-rishimiz mumkin. Must'e davrini xususiyatlaridan yana biri ilk san`atni vujudga kelishidir. Buday fikrga kelishda arxeologlarimiz ba'zi bir buyumlarda ornamevtlarga o'xhash maxsus qilingan belgilarga asoslanadilar. Bundan tashqari must'e yodgorliklarini ba`zidlarida foydalanish uchun mo'ljallangan oxralarni topilishi ham yuqoridagi fikrga olib keladi⁵⁰.

Shunday qilib nafaqat bizni Markaziy Osiyo mintaqasi-sidagi balki, butun jahon hududidagi must'e yodgorliklar-ni arxeologlar tomonidan o'rganilishi must'e davrida mehnat quollarini yasash texnikasi yuqori darajaga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Agar ashell' davrini mehnat quollari barmoq bilan

⁵⁰ Мамедов Э. Д. Палеоэкология человека каменного века в пустынях Средней Азии. – в кн.: Культура и искусства древнего Хорезма. – М.: Наука. 1981, с. 43 .

sanarli darajada bo'lsa, must'e davriga kelib ularni soni 60 taga etishi yuqoridagi fikrni to'la tasdiqlaydi. Ov usullari xatto yashash qarorgoxlari ham nisbatan yuqori darajaga ko'tarildi. Ularning yashash qarorgoxlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki ular 15- 20 kishi bo'lib, birgalikda yashaganlar va ov qilganlar. Bunday xolat o'z navbatida tartibsiz jinsiy aloqalarga ham chek qo'ya boshladi. ekzogamiya. ya'ni birga yashayotgan guruhlar orasida jinsiy alokalarni ta'kiklash vujudga kela boshladi. Bu kabi munosabatlar esa urug' tuzumiga xosdir. Demak, must'e davriga kelib, urug' tuzumini ilk ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Poleantroplar astasekin hozirgi zamon odami xolatiga o'ta boshladilar. San'atni ilk kurtaklari paydo bo'lishi bilan birga ibridoiy odamlarda e'tiqod ham paydo bo'la boshlaydi. Bu aytilganlarni barchasi mutaxassislar uchun must'eda urug' tuzumini tashkil topa boshladi deyishga asos beradi. Shuni aytish joizki, must'e davri qarorgoxlari, ayniqsa tabiat kuchining ta'siri ostida joyidan siljib turli tomonlarga tarqalgan arxeologik ashyolar nafaqat bizning O'zbekistonimiz hududida balki O'rta Osiyoni barcha hamdustlik respublikalarida ko'plab topilgan. Ammo bizning respublikamizda yuqorida eslatib o'tganimizdek, Ya.G'.G'ulomovni sayi harakatlari bilan O'rta Osiyoda yagona bo'lган arxeologiya institutini tashkil qilingani va unda ko'plab mutaxassis milliy kadrlarni etishitirilgani tufayli insoniyat tarixining barcha jabxalarida ancha to'la va keng miqyosda o'rganilgan. Qo'shni Tojikiston hududida ham must'ega oid yodgorliklar juda ko'plab topilgan. Shulardan mashxurlari Og'zi kichik, Oq jar, Qora bura, Qayroqkum, Semiganj, Kuxi-Piyoz, Baypazinlardir. Bular orasida Og'zi kichik g'or makoni nafatsat Tojikistonda balki, butun O'rta Osiyodagi mashxur bo'lган must'e yodgorliklaridan hisoblanadi. G'or Vaxshtog' tizmasining janubiy g'arbiy qiyaligida bo'lib, Dang'ara qishlog'idan 20 km shimoldagi Sharshar qishlog'i yaqinida joylashgan. Yodgorlikda qazish ishlari olib borilishi natijasida bu erda qanday bo'lsa shunday xolda saqlangan 1m qalinlikdagi madaniy qatlam ochildi. Unda katta gulxan qoldig'i, har xil must'ega oid tosh qurollar topilgan. Og'zi kichik g'orini madaniy qatlamini ustki qismlaridan yuqori paleolitga xatto mezolitga oid mehnat qurollari ham topilgan. Og'zi kichik g'or

makonidan topilgan topilmalar asosan o'tkir uchli paykonlar (nayza uchlari), pichoqlar, qirg'ichlar, kesgichlar, teshgichlar bo'lib, ular uchirindi va plsatinkalar-dan yasalgan. Bu mehnat quollarining aksariyati retush-langan, ya`ni bularga ikkinchi ishlov berilgan. Plastinka-lar ham uchirindi (otshep) lar kabi o'zaklardan uchirib olingan. Ammo ularning bo'yi eniga qaraganda, frantsuz olimi Bordning fikricha 1,5 barobar va undan ortiq bo'lган. Og'zi kichik g'or makoni yodgorligini yoshini Teshiktosh g'or odamlari bilan barobar deguvchilar ham bor. Ammo Teshik-tosh bilan Og'zi kichik g'ori topilmalarini jiddiyroq o'rga-nilsa, aniqrog'i qiyoslanilsa, Teshiktoshda Og'zi kichikka nisbatan hayot ancha ilgari boshlanganiga iqror bo'lamic. Qora-bura yodgorligi ham must'e davriga oid bo'lib, u Toji kiston jumxuriyatining Qo'rg'ontep shahridan 37 km janiu-biy-g'arbda Vaxsh daryosining chap soxilida Shinko'1 qishlog'i yaqinida Qora-buraning 2,5 km lik hududida joylashgan bo'lib, uning 9 ta punktidan 8 mingtaga yaqin mehnat qurol-lari va shu qurollarni yashash jarayonida xosil bo'lган chiq-indilari topilgan. Topilmalarning juda ko'pchilagini mehnat qurollarini yashash uchun mo'ljallangan (zagatovka) lar tashkil qiladi. Rapidasimon o'zak (nukleus) lar ham ko'plab uchraydi. Bu yodgorlik uchun harakterli belgilardan yana biri mehnat qurollariga ikkinchi ishlov berilganidir.

